

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Omonov Vali

BITIRUV

MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “OTA-ONA VA FARZANDLIK BURCHI” MAVZUSINI O'QITISH
USULLARI (UMUMTA'LIM MAKTABINING 9-SINFI MISOLIDA)**

Navoiy -2014 yil

***Mavzu: “OTA-ONA VA FARZANDLIK BURCHI” MAVZUSINI O’QITISH
USULLARI (UMUMTA’LIM MAKTABINING 9-SINFI MISOLIDA)***

Reja:

Kirish. (Mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari)

- 1. Umumta’lim maktabida milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari fanini o’qitish.*
- 2. “Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari” fani davlat ta’lim standarti talablari.*
- 3. Milliy g’oyaning milliy xususiyatlari.*
- 4. Ota-ona, farzandlik burchi mavzusini o’qitish.*

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING TUSHUNTIRISH QISMI.

Mustaqillik tufayli mamlakatimiz o'z oldiga Mustaqillik tufayli mamlakatimiz o'z oldiga ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish, demokratik jamiyat qurish kabi ezgu maqsadlarni qo'ydi.

Prezidentimiz Karimov I. milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining maqsadi haqida fikr yuritib, uni shunday ta'riflangan: "Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan millati, tili va dinidan qat'iy nazar har bir fuqaroning yagona vatan baxt saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish yuksak fazilativa komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchanlik ishlariga da'vat etish shumuqaddas zamin uchun fidoiylilikni hayot mezoniga aylantirish milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir".

Hozirgi davrda milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini yurtdoshlarimizga, ayniqsa yoshlarga tushuntirish, targ'ib qilish, undagi bilim va qarashlar asosida yangicha e'tiqod va dunyoqarashni shakllantirish, nihoyatda muhim.

Shuning uchun Prezidentimiz 2001-yil 18 yanvarda "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar"ni mamlakatimiz ta'lim tizimiga yangi fan sifatida joriy etish to'g'risida farmon chiqardi. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida keng o'rgatilayotgan fan shu tariqa yuzaga keladi.

Bu fan, avvalo, mazmun-mohiyati President Karimov I. tomonidan asoslab berilgan g'oya-yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan yaxlit va izchil ta'limotni yushlarimiz qaldi va ongiga singdirish to'g'risidagi bilimlar tizimidan iborat.

"Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" faning ta'lim-tarbiyaviy maqsadi: o'quvchi yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi bo'yicha nazariy va amaliy

bilimlar bilan qurollantirish, yoshlarda mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish hamda g'oyaviy tarbiyani amalgam oshirishdir.

“Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” fani o'z oldiga bir qator vazifalarni maqsad qilib qo'ydi: Bular quyidagilardan iborat:

- umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslanib, yoshlarning dunyoqarashini boyitish va ularni kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash;
- milliy istiqlol g'oyalariga oid tushunchalar to'g'risida nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligini ta'minlash asosida ta'lim-tarbiya berish;
- Vatan va uning buyuk kelajagi oldida mas'uliyat, islohat mohiyatini yoshlarga teranroq anglatish;
- mustaqillikning qadr-qimmatini, uning tarixiy ahamiyatini o'quvchi yoshlar ongiga yetkazib, ularni hayotiy faoliyatida namoyon bo'lishiga erishish mumkin.

“Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” fanini o'qitish va o'rganishda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi. Bu ta'moyillar milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, erkinlik va bunyodkorlik g'oyalari ustuvorligi, vatanparvarlik va insonparvarlik, boy ma'naviy hamda ma'naviy merosni avaylab asrash va kelajak avlodga yetkazish, hamkorlik va do'stlik aloqalari mamlakatda fuqarolar va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik, xalq farovonligi va shu kabi boshqa milliy va umuminsoniy g'oyalarga asoslanadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tamoyillarga asoslanib tashkil etiladigan har bir dars mazmuniga milliy istiqlol g'oyalari singdirilsa, o'quvchilarning g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyalanganlik darajasi ortadi. Shu sababli milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillarni o'qitish davr talabiga aylandi. “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish” g'oyasi asosida tarbiyalangan yoshlar elim deb, yurtim deb yonib yashaydi, mehnat qiladi, Vatan manfaatini o'z manfaati deb biladi. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy rivojlanishi barkamol insonni shakllantirish bilan ro'yobga chiqariladi, barkamol, yetuk inson

asosan o'ta o'qimishli, yangicha fikrlaydigan, madaniyatli, odob-axloqli, mehnatsevar, jismonan va ruhan sog'lom, o'z haq-huquqini bilgan, Vatanini sevadigan, faol, fidoiy va ma'naviy boy singari insoniy fazilatlarga ega bo'lmog'ilozim.

Bunday yuksak fazilatlarga ega bo'lgan komol inson, asosan, oilada tarbiyalanadi. Oilani bolalarga ko'rsatadigan ta'siri shunchalik kattaki, hech qanday boshqa ijtimoiy ta'sirlar unga teng kela olmaydi. Bu fikrning to'g'riligini Prezidentimiz Karimov I. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida (1997-yil 29-avgustda) so'zlagan nutqida: "...Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi", -deb aytib o'tgan edi.

Haqiqatdan ham bola oilaviy muhit ta'sirida tarbiyalanadi. Oilaviy an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bolani kamolotga yetkazishda asosiy o'rin tutadi. Eng muhimi, bu farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini his etadi, anglaydi va nihoyat oila va jamiyat nafi tegadigan yeyuk inson bo'lib shakllanadi deb xulosa chiqarish mumkin.

O'z qadr-qimmatini bilgan xalq o'z madaniyati, ma'naviyati, qadriyatining asosi bo'lgan an'ana, urf-odat, rasm-rusmlarni avloddan-avlodga yetkazadi, asraydi hamda ularni davon ettiradi. Ana shundagina xalqning millatning, davlatning, hayotning davomlilik ta'minlanadi. Bu haqda buyuk xalq mutafakkiri Abu Rayhon Beruniy: "Vaqt pillapoyasi cheksizdir, bir-birini o'rnini egallab boradigan avlodlar zinadan-zinaga ko'tariladilar, xolos. Jamlangan tajribani har bir yosh avlod o'zidan keyin uni taraqqiy ettiradigan va boyitadigan navbatdagi avlodga yetkazib beradi", -deb o'rinli takidlangan.

Har qanday ijtimoiy-siyosiy hodisa, muqarrar ravishda, jamiyatning g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlariga bevosita yoki bilvosita aloqador bo'ladi. Ularning barchasi jamiyatning siyosiy tizimdagi, davlat va jamiyat qurilishiga borib taqaladi. Shu nuqtai nazardan, davlat va jamiyat qurilishining g'oyaviy mafkuraviy

masalalari boshqa sohalarni umumlashtiruvchi hamda konkretlashtiruvchi ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, davlat va jamiyat qurilishining g'oyaviy mafkuraviy masalalarida o'zida ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni intergatsiyalashgan va intersallashgan va universallashtirish tarzida namoyon qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Karimov I.ning 2006-yil 25-avgustda imzolangan 451-son qarori: "Bugungi kunda amalgam oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamli islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini atroflicha sharhlash va tushuntirish, yurtimizga qarshi qaratilgan g'oyaviy va information xurujlar, ularning ortida turgan kuchlarning g'arazli maqsadlarini fosh qilish, odamlarni hushyorlik va ogolikka da'vat etish, olimlar, siyosachi va mutaxassislar, ijodkor ziyolilar ishtirokida joylarda targ'ibot tizimini yo'lga qo'yish"¹.

Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar muayyan g'oya asosida amalgam oshadi. Shunga ko'ra, xalqimiz va mamlakatimizning bugungi va istiqboldagi taraqqiyotini ta'minlashda mustaqillik yillari shakllanib rivojlanayotgan milliy mafkura muhim o'rin tutadi. "Chunki mafkura jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Har qanday inson, tabiiyki, murod maqsadsiz yashay olmaydi. Binobarin, hayot mavjud ekan, mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlari bor ekan, ular o'z taraqqiyot yo'lini, ertangi kun ufqlarini o'zining milliy g'oyasi, milliy mafkurasi orqali belgilab olishga intiladi"². Demak milliy g'oya va mafkurada mamlakatimizda yashayotgan barcha kishilarning asosiy maqsdlari hamda erishish yo'llari mujassamlashtirishgan. Binobarin, yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishda kishilarimizning milliy g'oya va mafkurani chuqur o'rganib, o'zlashtirish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Buning uchun mamlakatimizda olib borilayotgan g'oyaviy-mafkuraviy ishlarni taraqqiyotimiz talablariga muvofiq rivojlantirib,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samardorligini oshirish to'g'risida"gi qarori. // "Xalqso'zi", 2006-yil 26-avgust

² I.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild,T., "O'zbekiston", 2000-y. 490-bet

xalqimizga milliy g'oya va mafkuraning mazmun-mohiyatini aniq-ravshan tushuntirish taqozo etiladi.

Mustaqillik yillar barcha sohalardagi kabi, bu yo'nalishda ham ulkan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, so'nggi yillarda g'oyaviy-mafkuraviy ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqotishlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgan jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-marifiy taraqqiyotiga jiddiy turtki bermoqda. Aksariyat fuqarolar buzg'unchi g'oya va mafkuralar mohiyatini farqlab, ularning g'arazli maqsadlarini anglab yetmoqda. Bu, hech shubhasiz, keyingi yillarda olib borilgan ijobiy ishlarning samarasidir.

Ammo mazkur sohada qtor muammolar ham yo'q emas. Xususan, jamiyatimiz a'zolarining hammasi ham milliy g'oya va mafkuraning mazmun-mohiyatini, hayotimiz va taraqqiytimizda tutgan o'rni hamda ahamiyatini hamon yetarlicha anglamayotganini ta'kidlash lozim. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Milliy g'oya milliy mafkura o'zi nima degani, uning ma'no-mazmuni, biz uchun ajamiyati nimada, deb yurganlar.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy metodologik asosi. Ijtimoiy siyosiy hayotda sodir bo'ladigan voqea hamda hodisalarga dialektik munosabat, obyektivlik, tarixiylik, umuminsoniy qadriyatlar va milliy g'oyaning uyg'unligiga asoslangan tafakkur tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Karimov I.ning asarlari, jumladan, milliy g'oya va mafkuraga bag'ishlangan nutqlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ma'naviyat va ma'rifatning jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti va davlat siyosatidagi ustuvor yo'li va o'rni to'g'risidagi ko'rsatmalari hamda mazmuni yoritilishida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Mavzuning ilmiy nazariy jihatdan dolzarbligi va muhimligi, uning tadqiq etilish darajasidan kelib chiqqan holda milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslarini yoshlar ongiga singdirish shakllari va yo'nalishlarini o'rganish va tadqiq etish maqsad qilib belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Karimov I.ning milliy g'oya va ma'naviyatga bag'ishlangan nutqlarini o'rganish;
- "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanini uzluksiz ta'lim tizimidagi ahamiyatni asoslab berish;
- Milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongiga singdirish asoslarini o'rganish;
- Milliy g'oya mafkurasini hayotga targ'ib etish shartlarini ta'kidlab o'tish;
- Umumta'lim maktabida milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlab o'tish;
- Milliy g'oyaning milliy tamoyillariga to'laroq ochib berish;
- Ota-ona va farzandlik burchini singdirish usullari va vositalari ko'rsatish. Milliy tarbiya masalalarini e'tirof etish;
- Yoshlarni vatanparvar va yuksak insoniy fazilatlarga ega komil insonlar qilib tarbiyalash;

Mavzuga oid manba, adabiyotlar va huquqiy-meyoriy hujjatlarni o'rganish hamda tahlil etish natijasida xulosalar chiqarish va ta'lim sohasi taraqqiyotiga yordam bera oladigan amaliy taklif va tavsiyalar berish.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. *"Ota-ona va farzandlik burchi" mavzusini o'qitish usullari (umumta'lim maktabining 9-sinfi misolida)* mavzusida bitiruv malakaviy ishi, bitiruv malakaviy ishning tushuntirish qismi, to'rtta reja, xulosa va foydalanilgan adabiyotlarro'yxatidan iborat.

1. UMUMTA'LIM MAKTABIDA MILLIY ISTIQLOL G'OYASI VA MA'NAVIYAT ASOSLARI FANINI O'QITISH.

Uzoq yillar davomida ota-bobolarimiz orzu qilgan mustaqillikning dastlabki davridan boshlab milliy g'oya va mafkurani shakllantirish xalqimiz uchun juda muhim ehtiyojga aylandi. Chunki buyuk kelajakni barpo etish uchun millatni bir jonu bir tan qilib birlashtirish kerak.

Prezidentimiz Karimov I. o'z asarlarida milliy g'oya va mafkurani asoslab, uni hayotga tadbiq etish yo'l-yo'riqlarini belgilab berdilar. Bu masala o'ta dolzarb, muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega. Chunki hech bir xalq mafkurasiz o'z maqsadlariga erisha olmaydi. Mafkura mohiyati, maqsadi va harakat yo'nalishlari bilan jamiyatning milliy g'oyalarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi, uning hayotbaxsh qudratini ishga tushiradi.

Shu sababli milliy g'oyani o'qitishda asosiy vazifalar belgilandi va uning Davlat ta'lim standartlari yaratildi.

Davlat ta'lim standarti (DTS)-o'quvchi –talabalar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani, ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilovchi xujjatdir. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy xujjatlarni yaratish uchun asos bo'ladi.

Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston hududida faoliyat ko'rsatuvchi barcha ta'lim muasasalari uchun majburiydir.

O'quv rejasi (tayanch va ishchi) –ma'lum bir yo'nalishda mutaxassis tayyorlashni tartibga soluvchi me'yoriy xujjatdir. U davlat ta'lim standartining tarkibiy qismi bo'lib ta'lim muassasasi moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'ladi.

O'quv dasturi-ma'lum bir fan bo'yicha qanday mavzularni o'rganishni belgilovchi me'yoriy xujjatdir. U DTSning tarkibiy qismi. Namunaviy va ishchi dasturga bo'linadi. Ishchi dastur har yili yangilanadi va qo'shimchalar bilan boyitib boriladi.

Demak, bu me'yoriy xujjatlar milliy g'oya va mafkurani o'quvchi talabalar ongiga singdirishga xizmat qiladi.

Milliy g'oya va mafkura jamiyat rivojlanishidagi yetakchi g'oyalarni o'zida mujassam etib, xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, ruhiyatiga, qadriyatlariga asoslanib, kelajakka bo'lgan ishonch tuyg'ularini tarbiyalaydi. Bu g'oyalar bilan qurollangan insonlar o'z orzu-intilishlari yo'lida birlashadilar.

SHuning uchun ham Prezidentimiz milliy g'oya va mafkura – xalqni yagona maqsad sari birlashtiruvchi bayroq deya ta'kidladilar. Darhaqiqat, milliy g'oya va mafkura millatni jipslashtiruvchi g'oyalar tizimi bo'lib, jamiyatning har tomonlama, bekamu-ko'st barqaror rivojlanishini nazariy va amaliy jihatidan ta'minlaydi. SHu sababli taraqqiyot sari yetaklovchi ulug'vor milliy g'oya va mafkuraning asosiy tushuncha va tamoyillarini o'qitish, o'rganish, ularning kundalik xatti-harakatlarida namoyon bo'lishiga erishish – davr talabidir. YOshlar qalbida va tafakkurida “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot” ruhini kamolga yetkazish muhim masala va dolzarb vazifa. Ana shu ruh qalbida barqurgan yoshlar elim deb, yurtim deb yonib yashaydi, mehnat qiladi, millat manfaatini o'z manfaati deb bilish darajasiga ko'tarila oladi.

Mana shunday barkamol avlodni voyaga yetkazish, mamlakatimiz kelajagini ta'minlash uchun O'zbekistonda ta'lim tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi deb belgilandi. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan bu modelni amalga oshirish tufayli hayotimiz jabhalarida ro'y beradigan “portlash effekti” natijalari ro'y rost ko'rsatib berildi.

YA'ni, bu narsa ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhitni butunlay o'zgartiradi. insonning hayotidan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi. Jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. Jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik jamiyati qurishni

ta'minlaydi, model vositasida dunyodan munosib o'rin olishga, o'zbek nomini yanada keng yoyib tarannum etishga erishiladi.

Jamiyatimizning har bir fuqarosini tarbiya asoslari bilan inson va shaxs qilib voyaga yetkazish jarayonini yangi pedagogik "qurol" va vositalar bilan ta'minlash davr taqozosidir. Pedagogik texnologiya, ta'lim standartlari yordamida uchinchi ming yillikda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda xurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

2005 yil 13 avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining «O'quvchi-talabalar ongi va qalbiga milliy g'oyasini singdirishda ta'lim-tarbiyaviy ishlarni o'zaro uyg'un holda tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar» e'lon qilindi. Ushbu uslubiy tavsiyalar takomillashgan Davlat ta'lim standartlarini yaratishda asos bo'lib xizmat qildi. Davlat ta'lim standartlarida asosan o'quvchi-talabalarga beriladigan bilimlarning darajasi aniqlanadi va fan mazmuniga qator talablar qo'yiladi. Chunki berilayotgan bilim ma'lum bir hajmda chegaralanadi.

Milliy g'oya va mafkura fani mazmuniga qo'yiladigan talablar. Yoshlarga milliy g'oyaning asosiy tushuncha va tamoyillarini singdirishda quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

1. Har bir guruhda o'quvchi-talabalarga milliy g'oyani singdirishning mazmun va mohiyatini, yosh va intellektual xususiyatlarini hisobga olib yondashish.
2. O'quvchi-talabalarga ezgulik bilan ijtimoiy faollikni uzviy ravishda mujassamlashtirilgan holda singdirish.
3. Milliy g'oyani singdirishning yo'nalishlari va bosqichlarini belgilash.
4. Milliy g'oyani singdirishning metod va shakllari hamda vositalar mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish.
5. O'quvchi-talabalarning ongi va shuriga milliy istiqlol g'oyani singdirishda ijtimoiy tarbiyaning barcha omillari hamkorligidagi ishlarni amalga oshirish.

6. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda milliy g'oyani singdirishga doir ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda eng maqbul amaliy usullarni qo'llash.

7. O'quvchi-talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlari hamda dunyoqarashini boyitib borish bilan birga milliy mafkuraning mohiyati, ijtimoiy taraqqiyot va shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni, ahamiyati, milliy g'oyani o'rganish zaruratini doimiy ravishda, maqsadga muvofiq yoritib borish.

8. Milliy g'oya asosida talaba-o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishni aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat negizida tashkil etish.

9. Fanni o'qitish va tarbiyaviy ishlarning uzviyligi-uzluksizligini ta'minlash.

10. O'qitish jarayonida berilayotgan bilimlar va keltirilayotgan faktlarning aniqligiga rioya qilish.

11. Nazariy bilimlar va hayotiy misollarning o'zaro mosligi, ularning bir-birini to'ldirishiga e'tibor berish.

12. Fanlararo aloqa tamoyiliga rioya qilish, tushunchalarni sodda, aniq berish, ularni o'rganuvchilarning yoshi, dunyoqarashi, ruhiyatiga mosligini ta'minlash.

13. O'quv dasturi, qo'llanma va darsliklarning bir-biriga mos bo'lishini ta'minlash.

14. Dasturda belgilangan mavzular va ularga ajratilgan soatlarning o'quv qo'llanmalari va darsliklarga mos kelishi hamda to'la yoritilishini ta'minlash.

15. O'qituvchining dasturda belgilangan mavzular bo'yicha qo'shimcha ilmiy-metodik materiallarga ega bo'lishi, o'z ustida muntazam ishlashini ta'minlash.

16. Dastur vazifalarini to'liq amalga oshirish uchun zarur bo'lgan metodik tavsiya, amaliy mashg'ulotlar, referatlar, mustaqil ishlar uchun mavzular, savollar, tayanch iboralar lug'ati, qo'shimcha adabiyotlar va yordamchi manbalarni takomillashtirish.

Milliy g'oyani singdirishning metodologik asosi uchun yo'lanma:

1. Prezident Karimov I.ning milliy g'oya va mafkurani shakllantirishga doir nutqlari va asarlarini o'rganish va ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida keng foydalanish.

2. Milliy g'oya va mafkurani singdirish jarayonida tarixiy boy ma'naviy merosimizga doir bilimlar berishga e'tibor qaratish.

3. Xalq pedagogikasi va buyuk allomalarimizning falsafiy qarashlari va mulohazalarini o'rganish.

4. Mustaqillikka erishgandan keyingi o'tgan davr mobaynida barcha sohalarida (ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy) amalga oshirilgan ulkan o'zgarishlar haqida tushunchalar berish.

Uzluksiz ta'lim tizimida milliy g'oya va mafkurani yoshlar ongiga singdirishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratish lozim:

1. Vatanparvarlik tuyg'usini tarkib toptirish.
2. Milliy urf-odatlar, an'analarga hurmat hissini shakllantirish.
3. Har bir yoshning ma'rifatli va madaniyatli shaxs etib tarbiyalashga individual yondoshish.
4. Millat ruhi, g'ururi hamda Vatanga sadoqat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish.
5. Ta'lim tizimida SHarq va G'arb davlatlarining ta'lim-tarbiyada erishgan yutuqlari bilan tanishish va ularni amaliyotga joriy qilish.
6. Islom dini ta'limoti va undagi ma'naviy-ma'rifiy tushunchalarni o'quvchi-talabalarining yosh xususiyatiga qarab, dastur va darsliklarga kiritish.
7. Har bir o'quvchi-talabaning mustaqil fikrlashiga va ijodiy izlanishiga yo'l ochib berish.
8. O'quvchi-talabalarda intizomlilik hamda qat'iyatlilik ruhini barqarorlashtirish.

Uzluksiz ta'lim tizimida milliy g'oya va mafkurani singdirish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishini hisobga olish zarur:

1-bosqich. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga milliy g'oya va mafkurani singdirish;

2-bosqich. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga milliy g'oya va mafkurani singdirish;

3-bosqich: O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimida yoshlarga milliy g'oya va mafkurani singdirish;

4-bosqich. Oliy ta'lim tizimida talaba-yoshlarda milliy g'oya va mafkurani shakllantirish;

5-bosqich. Milliy g'oya va mafkurani bo'yicha pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tizimli asosda yo'lga qo'yish.

Milliy g'oya va mafkurani o'quvchilar ongiga singdirishda o'quv jarayonini uzviylik-uzluksizlik asosida samarali tashkil etish yo'llari

- fan bo'yicha bilimlarni berish va tegishli malaka va ko'nikmalarni hosil qilishda zamonaviy pedagogika fani yutuqlarini samarali qo'llash;

- dasturda ko'rsatilgan mavzular bo'yicha dars ishlanmalarini yaratish;

- darslarni o'qitishda, tarbiyaviy ishlarda yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion usullardan unumli foydalanish ;

- o'quvchi-talabalarni aniq, ular bajara oladigan vazifalar berish, ijrosini nazorat qilish, ta'minlash hamda rag'batlantirish;

- fanga nisbatan o'quvchi-talabalarda qiziqish uyg'otish;

- joriy, oraliq va yakuniy nazoratni amalga oshirish uchun mavzular, bo'limlar, boblar bo'yicha nazorat turlarini aniqlash va ular uchun materiallarni tayyorlash;

- bilimlarni baholashda o'quvchi-talabaning mustaqil fikrlashi, hayotiy misollar keltira olishi yoki o'z hatti-harakatlari misolida tushuntira olishiga ko'proq e'tibor berish;

- o'quvchi-talabaning fan asosida Vatan, millat va uning kelajagiga bo'lgan munosabatini uning hatti-harakatlarida namoyon bo'lishiga erishish;

- fanga oid alohida auditoriya xonalarining milliy g'oya va mafkurani o'qitish talablariga muvofiq jihozlanishini ta'minlash;

- har bir mavzuni yoritishda kamida bitta interfaol uslubni qo'llash va ko'rgazmali qurollarga ega bo'lish;

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning barcha jabhalarini qamrab olishi;

- o'quvchi-talabalarning hayotni to'la anglashga, bugungi kunni qadrlashga, jamiyatning yetuk a'zosi bo'lib yetishishga intilishlariga ko'maklashish;

- o'quvchi-talabalar bilimlarini baholashning haqqoniyligini ta'minlash va rag'batlantirish.

Milliy g'oya va mafkurani o'qitishning tamoyillari

Mazkur fanning zamon talablari darajasida o'qitilishini ta'minlash vazifasi professor-o'qituvchilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Eng avvalo, "Milliy g'oya va mafkurani" fanidan dars beruvchi professor-o'qituvchilarning o'zlari bu fanning ahamiyatini chuqur idrok etishlari, uning maqsad va mohiyatini mufassal bilib olishlari zarur. Ikkinchidan, fanni o'qitishda o'quvchi va talabalarning yoshi, psixologik xususiyatlari, idrok etish imkoniyatlari, bilim va hayotiy tajribasini hisobga olish lozim. Uchinchidan, mazkur fan bo'yicha dars berayotgan o'qituvchilarning pedagogik mahorati, vatanparvarligi, millatparvarligi, ularning talaba-yoshlar bilan hamkor va hamfikrligi nihoyatda muhim.

"Milliy g'oya va mafkurani" fanini o'qitishda quyidagi pedagogik masalalar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. "Milliy g'oya va mafkurani" fanini o'qitishga ijodiy yondashish zarur. Xususan, mamlakatimiz taraqqiyotiga xos dalillar, xalqimizning tarixi, milliy-ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanish, oddiy hayotdan olingan misollarni qo'llash ijobiy natija beradi.

2. Fanni o'qitishda asosiy manba sifatida Prezident Islom Karimov asarlariga tayanish va xalqimizning og'zaki ijodiyoti namunalari, Vatanimizning boy tarixiy merosiga murojaat qilish orqali milliy g'oyaning negizlarini tushuntirish zarur. Talaba va o'quvchilarda milliy qadriyatlarni o'rganish, ularni asrab-avaylash, milliy qahramonlarimiz, ulug' ajdodlarimiz hayotiga qiziqish uyg'otish, ulardan o'rnak olishga ehtiyoj uyg'otish lozim. O'quvchi-yoshlarda uzoq va yaqin o'tmish to'g'risida bir tomonlama, o'ta sodda, noto'g'ri tasavvur hosil bo'lishidan saqlanish juda muhimdir.

3.Fanni o'qitishga o'ta ilmiy yondashish yoki uni me'yordan ortiq soddalashtirishga, "nasihatgo'ylikka", mavsumiylikka berilib ketishdan saqlanish kerak. YUtuq va muammolarni chuqur tahlil etish, yoshlarning o'zini ularga javob topishga qiziqtirish, muhokamalarda erkin ishtirok etishini ta'minlash kerak. Professor-o'qituvchining shaxsiy ibrati, ta'lim va tarbiya birligiga amal qilishi o'ta muhimdir.

4.Milliy g'oyaga rasmiyatchilik bilan yondashmaslik, uni bir andozaga solib qo'ymaslik kerak.

5.Milliy g'oya va mafkurani mohiyatini o'rgatishda fikrlar xilma-xilligi demokratik hayot tarzining tarkibiy qismi ekanini o'quvchilarga yetkazishga alohida e'tibor berish zarur.

6.Mafkuralar o'rtasidagi kurash keskinlashgan tarixning hozirgi globallashuv pallasida vayronkor g'oyalar, informatsion xurujlar ta'sirining kuchayishi barcha davlatlarda ham halokatli oqibatlarga, bunyodkor g'oyalarning tantanasi esa jamiyatni taraqqiyotga olib borishini tarixiy misollar bilan isbotlash zarur.

7.Talaba-qo'uvchilar bugungi o'tish davriga xos qiyinchiliklarning ildizlarini, eski tuzumga xos boqimandalik kayfiyatidan qutulishning oson kechmayotganini anglashi, bundan xalos bo'lish uchun esa odamlardagi ong va tafakkur o'zgarishiga, ularda o'z imkoniyatlariga tayanish, tashabbuskorlik, fidoiylilik tuyg'usi shakllanishi zarurligini chuqur idrok etishlari lozim.

8.Talaba va o'quvchilarning diqqatini milliy g'oya va mafkuraning hayotbaxsh jihatlariga qaratish, uning kelajakka yo'naltirilgan, xalqimizni pirovard maqsadlar yo'lida birlashtiradigan maqsadlar bilan sug'orilgan nazariya ekanini ularning ongiga singdirish lozim. Maqsad yosh avlodning bugungi tahlikali dunyoda oq bilan qorani farqlaydigan kishilar bo'lib yetishishiga qaratilgan bo'lishi zarur. Bu boradagi ishlarda uzilish bo'lmasligi, tasodifiylikka, mavsumiylikka yo'l qo'yilmasligi, xo'jako'rsinga ish qilinmasligi, bunday salbiy holatlar ro'y berganda zudlik bilan ularning oldini olish lozim.

9.Dars berish jarayonida, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda hayotdan, zamondoshlarimizning kundalik faoliyatidan, turli sohalarda qo'lga kiritilayotgan

yutuqlardan misollar keltirish bilan yoshlarning fanga qiziqishini hosil etishga erishish mumkin. Bunda ommaviy axborot vositalari xabarlari, joylardagi urush va mehnat faxriylari, zamonamiz qahramonlari, ijodkor yoshlar bilan uchrashuvlar, o'qitishning yangi texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ulug' pedagoglar ta'lim natijasida faqat bilimlar hajmi hamda ko'nikma va malakalar kengayib qolmasdan, balki shaxsiy sifatlar ham shakllanishini aytganlar. Jumladan, ta'limning vazifasi o'quvchilarga ma'lumot berishdagina emas, balki ularda adolatparvarlik, ishonch, e'tiqodlilik, mardlik, tirishqoqlik, foydali ishga, o'rnatilgan xulq-atvor qoidalarini bajarishga o'rgatishda ham, deb bilingan. Zero, ta'limning tarbiyalovchi funksiyasini bilmaslik – og'ir yukni yengil ko'taruvchi richagni qo'ldan chiqarishga o'xshaydi. “Milliy g'oya va mafkura” fani yoshlarni bunyodkor ishlarga g'oyaviy tayyorlaydi, ularning milliy dunyoqarashini, sog'lom e'tiqodini, mustaqil fikrlarini shakllantiradi. Fanning har bir mavzusi milliy mafkuraning u yoki bu tarkibiy qismini o'rgatadi. O'rganilgan, o'zlashtirilgan asosiy tushuncha va tamoyillarning ertaga hayotda qo'llanilishi (ishga tushishi) ozod va obod O'zbekistonni rivojlantirishda har bir yosh o'zbekistonlikka ruh, ishonch beradi. SHuning uchun ham o'quvchi-talabaning “Milliy g'oya va mafkura” fani darsliklarida yozilgan matnni qayta hikoya qilib bera olishi bizning pirovard maqsadimiz emas. Milliy g'oya va mafkuraning asosiy tushuncha va tamoyillari o'quvchi ongida qayta ishlanishi, o'quvchi-talaba bu g'oyalar haqida o'ylashi kerak. Ana shundagina milliy g'oyalar har bir o'zbekistonlik yigit-qiz dunyoqarashining markaziga, hatti-harakatlarining rag'batiga aylanadi. Buyuk kelajakka mustahkam ishonchni paydo qiladi. CHunki, e'tiqod faol ijodiy yondashuvda sinalib, toblanadi. SHuning uchun ham nafaqat bilim, balki g'oyaviy ko'nikma va malakani shakllantirishga alohida e'tibor berish kerak. Ana shunda milliy g'oya o'quvchi-yoshlar orzusini O'zbekiston xalqi orzulari bilan birlashtiradi, bunyodkor ishlarga chorlaydi.

Talaba-yoshlarni milliy g'oya va mafkura yo'nalishida mustaqil tadqiqot metodlari – kuzatish, eksperiment o'tkazish, adabiy manbalar bilan ishlash, muammolarni mustaqil aniqlab, ko'tarib chiqish, muammoli vaziyatlarni yechishga

o'rgatib borish zarur. Zero ilm – inson tafakkuriga tartib, tizimlilik baxsh etadi. Bu esa pirovard natijada yoshlarda ilmiy dunyoqarashning shakllanishiga zamin yaratib, ularning qalbiga diniy aqidaparastlik, “dunyo fuqarolari”, “rangli inqilob” “ommaviy madaniyat” mafkuralari qarashlarining kirib borishiga to'siq qo'yadi.

Milliy g'oya va mafkura fanini o'itishda unga ijodiy yondashish zarur. Xususan, mamlakatimiz taraqqiyotiga xos dalillar keltirish, xalqimiz tarixi, milliy-ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanish, o'quvchi-talabaning ko'z o'ngida yuz bergan va yuz berayotgan oddiy voqea-hodisalarni misol sifatida qo'llash ijobiy natija beradi.

O'quvchi-talabalarga milliy g'oya va mafkurani singdirishda professor-o'qituvchilar faoliyatini takomillashtirishning dolzarb vazifalari:

1. “Milliy g'oya va mafkura” turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda erishilgan tajribalarni o'rganish va uni ommalashtirishni yo'lga qo'yish.

2. Ushbu fan o'qituvchisi birinchi navbatda mutaxassis, o'z fanini yaxshi biladigan, fidoyi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanadigan, ularning yangi usullarini kashf eta oladigan, ijodkor pedagog bo'lishi lozim.

3. Ta'lim berishda o'qituvchi har qanday vaziyatda oddiy usullarda ham mukammal bilim berish yo'llarini izlab topmog'i va ularni mohirona qo'llamog'i kerak.

4. Fan bo'yicha tayyorlanayotgan pedagog kadrlarning sifatiga e'tibor berish va ularning mutaxassisliklari bo'yicha ishlashini ta'minlash zarur.

5. Professor-o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish bo'yicha ularning malakasini oshirishning mukammal tizimini yaratish.

6. O'tkaziladigan mashg'ulotlarga soha olimlarini taklif etish orqali bahs-munozaralar, savol-javoblar o'tkazish.

7. Professor- o'qituvchilarning g'oyaviy targ'ibotni tashkil etish uchun yetarli tayyorgarlik va bilimlarga ega bo'lishini ta'minlash.

Milliy g'oya va mafkurani o'quvchi-talabalar ongiga singdirishda fanlararo bog'liqlik va uzviylikni ta'minlash

Bu borada umumta'lim fanlari milliy g'oya va mafkurani bo'yicha o'quvchilarning bilimini boyitishda muayyan imkoniyatlarga ega.

Umumta'lim fanlari, jumladan, ijtimoiy-gumanitar fanlar hamda O'zbekiston Konstitutsiyasi va O'zbekiston Prezidenti asarlarini o'rganish jarayonida milliy g'oya va mafkurani o'quvchi-talabalar ongiga singdirib borish ishlarini takomillashtirishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu fanlar va maxsus kurslarning mazmuniga milliy g'oya va mafkurani ularning hajmiga zarar yetkazmagan holda mohirlik bilan singdirishga erishish va uyg'unlashtirish kerak. SHarchi turli kasbiy va fan yo'nalishiga qaraganda milliy g'oya va mafkurani soat hajmiga ko'ra bir oz farq bilan o'tilsa-da, o'quvchi-talabalarning milliy g'oya va mafkurani o'zlashtirishlari va amalda hayotga tadbiqu eta olishlariga erishishda ijobiy samarasini bersin.

Uzviylik va uzluksizlik haqida gap ketar ekan, tevarak olamda, hamma narsada bir-biriga uzviy va chambarchas bog'liqlik bo'lgani kabi, ta'limda ham hamma narsa bir-biri bilan vobasta ekanini yodda tutish lozim. Darhaqiqat, uzviylik talabalar olayotgan bilimning aniq tartibga solinishini ta'minlaydi.

Uzviylik va uzluksizlik darsliklar va darsning tuzilishida ham namoyon bo'lishi kerak. YA'ni mavzuni tushuntirish, takrorlash, mustahkamlash, o'rganilgan materialni identiv maqsadlar qo'yib tekshirish talab qilinadi. Toki o'quvchilar tizimli asosda ishlash malakasiga ega bo'lsinlar.

Fanlararo aloqalar masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim. CHunki, har bir predmetning ichki tuzilishida boshqa bir qator predmetlarga doir materiallar mavjud bo'ladi. Masalan, "Milliy g'oya va mafkura" fanida falsafa, tarix, pedagogika, psixologiya, huquqshunoslik, iqtisodiyot va boshqa fanlarga doir bilimlar talab qilinadi.

"Milliy g'oya va mafkura" fanida, umuman ijtimoiy-gumanitar fanlarda fanlararo aloqalar ta'minlansa, bu bir-birini takrorlashning oldini oladi.

Uzluksizlik – "Milliy g'oya va mafkura" fani mavzulari, bo'limlari, bosqichlarining oddiydan murakkabga qarab o'zaro bog'langanligi, bardavomligi demakdir.

4. “Milliy g’oya va mafkura” fanidan o’quv dasturlari, darslik va o’quv qo’llanmalari ta’lim turlari bo’yicha tuzilgan bo’lib 1-4 sinflarda bu fanning alifbosi, ya’ni, eng sodda shakldagi ma’no va mazmuni «Odobnoma» darslariga singdirilgan. Har bir sinfda 6-8 soat dars berilgan bo’lib o’quvchilarning bilim darajalari va yosh xususiyatlariga moslashtirilgan.

5-6 sinfga mo’ljallangan o’quv dasturida va darslikda har bir sinfga 34 soatdan dars ajratilgan va 40 ta mavzu berilgan. Ularda milliy g’oya va mafkuraning eng muhim mavzulari berilgan. Quyida biz buni ko’rib chiqamiz.

5 sinf uchun Vatan tuyg’usi o’quv fanidan yillik rejalashtirish

T/r	Mavzular	Soat
1	I bob. Vatanni sevmoq iymondandir.	1
	«Vatan tuyg’usi» fani nimani o’rgatadi?	2
2-3	Vatan nima?	1
4	Amaliy mashg’ulot: «Vatan – muqaddas makon»	2
5-6	Vatan tuyg’usi nima?	1
7	Muhammad YUsufning «Ulug’imsan, Vatanim» she’ri	1
8	1-MSNI. Erkin mavzudagi insho	1
9	Oila – Vatan timsoli	1
10	Amaliy mashg’ulot: A.Oripovning «Ona degan nom» she’ri	2
11-12	Vatanni nega sevamiz	1
13	Amaliy mashg’ulot: «Vatanparvar ajdodlarimiz»	
14	Takrorlash	1
15	2-MSNI. Test	
	II bob. Bizning vatanimiz – O’zbekiston	
16-17	O’zbekiston – vatanim manim	2
18	Amaliy mashg’ulot: A.Oripovning «O’zbekiston – vatanim manim» she’ri	1

19-20	O'zbekiston xalqi	2
21	Amaliy mashg'ulot: Muhammad YUsufning «Xalqim» she'ri	1
22-23	O'zbekiston davlati va Prezidenti	2
24	Amaliy mashg'ulot: «O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat»	1
25	3-MSNI. Test	1
26	Istiqlol nima?	1
27	Amaliy mashg'ulot: «Istiqlol olinur, berilmas»	1
28-29	Vatanimiz timsollari	2
30-31	Amaliy mashg'ulot: O'zbekiston bayrog'i, davlat m adhiyasi va gerbi haqida suhbat	2
32	4-MSNI. Erkin mavzudagi insho	1
33-34	Takrorlash	2
J a m i		34

6 sinf Vatan tuyg'usi o'quv fanidan yillik rejalashtirish

T/r	Mavzular	Soat
1-2	1. Biz kimmiz, kimlarning avlodimiz?	2
3	Vatanni anglash	
	Amaliy mashg'ulot: «Vatan ravnaqi» mavzusi asosida suhbat	1
4-5	Biz o'zbek xalqimiz	2
6	Amaliy mashg'ulot: Erkin Vohidovning «O'zbekim» qasidasi bo'yicha bahs	1
7	Biz – buyuk tarix egasimiz	1
8	1-MSNI. Erkin mavzudagi insho	1
9	Amaliy mashg'ulot: Tarix o'qituvchisi ishtirokida tarix xonasida yoki tarix muzeyida suhbat	1
10-11	Biz buyuk mamlakat egasimiz	2
12	Amaliy mashg'ulot: «Kitob – ma'naviyat manbai» mavzusida	

	kutubxona yoki ma'naviyat xonasida suhbat	1
13-14	Milliy davlatchiligimiz	2
15	2-MSNI. Test	1
16	Amaliy mashg'ulot: «Karimov I. mustaqil O'zbekiston davlati asoschisi» mavzusida suhbat	1
17	Milliy qadriyatlarimiz	1
18	Amaliy mashg'ulot: «Milliy qadriyatlarimiz o'zligimiz timsoli» mavzusida suhbat	1
19-20	Biz – O'zbekiston fuqarosimiz	2
21	Amaliy mashg'ulot: «Ozod vatan fuqarosi bo'lish baxt» mavzusida suhbat	1
22	Takrorlash	1
	II. Vatan yagonadir, Vatan bittadir	
23-24	Sog'lomlik va komillik	2
25	3-MSNI. Test	1
26	Amaliy mashg'ulot: «Komil inson» haqida suhbat	1
27-28	Vatanparvarlik	2
29	Amaliy mashg'ulot: «Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston» mavzusida suhbat	1
30-31	YOshlar – vatan kelajagi	2
32	Amaliy mashg'ulot: «Vatanni sharaflash – farzandlik burchi» mavzusida iste'dodlar bilan suhbat	1
33	4-MSNI. Erkin mavzudagi insho	1
34	Takrorlash	1
	J a m i	
		34

O'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun quyidagi o'quv qo'llanmalari va darsliklar yaratilgan:

1. A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo'rayev qalamiga mansub «Vatan tuyg'usi» qo'llanmasi (T., «O'zbekiston», 1996) 5-6 sinflar uchun mo'ljallangan bo'lib uch qismdan, 10 bobdan iborat. 5-6 sinflar uchun barcha ma'lumotlar yetarli.

2. S.Nishonova, O.Musurmonova, M.Qarshiboyev muallifligidagi 7- sinflar uchun «Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari» o'quv qo'llanmasi (T., «Ma'naviyat», 2002) 16 fasldan iborat. Milliy g'oyaga 8 ta mavzu berilgan.

3. M.Qarshiboyev, S.Nishonova, O.Musurmonova tomonidan tayyorlangan 8-sinflar uchun «Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari» o'quv qo'llanmasi (T., «Ma'naviyat», 2002) XVI fasldan iborat. Milliy g'oyaga 9 ta mavzu ajratilgan.

4. O.Musurmonova, M.Karshiboyev muallifligida yaratilgan 9-sinflar uchun «Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari» o'quv qo'llanmasi (T., «Ma'naviyat», 2003) 19 fasldan iborat. Milliy g'oyaga 8 ta mavzu berilgan.

5. X.Sultonov rahbarligidagi ijodiy guruh tomonidan X-XI sinflar uchun mo'ljallangan «Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» o'quv qo'llanmasi (T., «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2004) uch qism va 28 mavzudan iborat.

6. X.Sultonov rahbarligidagi ijodiy guruh tomonidan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun yaratilgan «Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» o'quv qo'llanmasi (T., «YAngi asr avlodi» , 2001) 12 ta nazariy va 12 ta amaliy mashg'ulotdan iborat bo'lib milliy g'oya bo'yicha asosiy masalalarni qamrab olgan.

7. X.Sultonov rahbarligidagi ijodiy guruh tomonidan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun tayyorlangan «Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» darsligi (T., «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» , 2003) uch qism 13 ta nazariy, 12 ta amaliy, 2 ta qo'shimcha va ixtiyoriy mavzular hamda asosiy tushuncha va atamalarning qisqacha lug'atidan iborat. Hozir ushbu darslik amalda qo'llanilmoqda.

O'qituvchi dars o'tish jarayonida, amaliy mashg'ulotlarda har bir o'quv qo'llanmani talabalardan tahlil etishni talab qiladi. Talabalar har bir o'quv qo'llanma va darslikda mavzular qanday yoritilganligini, ularda nimalar yetishmasligini, nimalarni, qanday yangiliklarni qiritish lozimligini va shu fandan muvaffaqiyatli dars o'tishi mumkinligini bilishi kerak.

2. *“MILLIY G’OYA VA MA’NAVIYAT ASOSLARI” FANI DAVLAT TA’LIM STANDARTI TALABLARI.*

Mustaqillik qo’lga kiritilgach mustaqillikning ahamiyati va mohiyatini g’oyaviy – mafkuraviy vositalar orqali xalqning ongiga yetkazish, ularni istiqlolni mustahkamlash uchun fidoyilik bilan mehnat qilishga safarbar qilish hayotiy ehtiyojga aylandi. Ana shunday sharoitda O’zbekiston mustaqilligining tashabbuskori I.A.Karimov birinchilardan bo’lib jamiyatda ma’naviy poklanishni amalga oshirish, eski aqidalardan holi bo’lish zarurligini, shu asosda milliy g’oya va mafkurasini yaratish lozimligini payqadi va kunning dolzarb vazifasi qilib qo’ydi. Bu masalada Prezidentimiz 1992 yil 2 iyulda Oliy Kengash X sessiyasida qilgan ma’ruzasida alohida uqtirib o’tdi.

Milliy g’oya va mafkuraning birinchi nazariy asosi Prezidentimizning 1992 yili nashr etilgan «O’zbekiston o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li» asari hisoblanadi. SHuningdek Prezident Konstitutsiyamizning bir yilligiga bag’ishlangan tantanali yig’ilishida (1993 yil 7 dekabr) nutq so’zlab, milliy g’oya va mafkurani milliy ehtiyoj darajasiga ko’tarish zarurligini ta’kidladi. Barchaning diqqat-e’tiborini ana shu muhim masalaning hal etilishiga qaratdi va «Mafkuraviy masalani hal etmasdan, uni amalga tadbiq etmasdan turib, Konstitutsiya belgilab bergan maqsadlarga erishish, o’z oldimizdagi qo’yilgan talablarga javob berish mushkul bo’ladi. Milliy mafkurani ongimizga singdiruvchi amaliy dasturni yo’lga qo’ymoq kerak » degan fikrni ilgari surdi.

Milliy g’oya va mafkurasi O’zbekistonning mustaqillikka erishishi va istiqlol yutuqlarini mustahkamlash haqidagi siyosiy, ilmiy, nazariy, tarixiy, falsafiy va diniy qarashlar majmui, xalqni kelajakka ishonch, e’tiqod ruhida tarbiyalovchi nazariy va amaliy qurol, barcha toifa kishilarini shu maqsad yo’lida birlashtiruvchi g’oyat qudratli ma’naviy omil hisoblanadi.

Milliy g'oya va mafkuraning asosiy mohiyati quyidagilardan iborat:

- xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, ruhiyatiga, tiliga, diniga mos qarashlar asosida odamlar ongiga kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini singdirish;

- milliy g'oya va mafkurasi orqali xalqimizda o'zining qudrati va himoyasiga suyanan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatida, ilg'or davlatlar orasida teng huquqli va munosib o'rin egallashga intilish hissini tarbiyalash;

- sog'lom, ma'naviy boy, komil avlodni shakllantirish.

Milliy g'oya va mafkura negizini vatanparvarlik, erkinlik, milliy iftihar, insonparvarlik, baynalminallik va shu kabi boshqa xususiyatlar tashkil etadi.

Demak, milliy g'oya va mafkurani o'z mohiyati va negizlariga ko'ra mustaqillikni mustahkamlashga, barcha imkoniyatlarimizni buyuk maqsad sari yo'naltirishga qaratilgan.

O'zbekiston jamiyatining milliy mafkurasi xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan asriy orzu-istaklarni amalga oshiradigan g'oyalar tizimidir.

Milliy mafkura keng xalq ommasining manfaatlarini, maqsad va ideallarini ifoda etadi. «Milliy mafkura, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning – butun xalqimizning umumiy manfaatlarini ifodalaydi».

Mafkura – milliy o'zlikni anglatuvchi kuchdir. Milliy mafkuraning asosiy tayanch nuqtasi ham ana shunda. Milliy o'z-o'zini anglash deganda har bir millat (elat)ning o'zini haqiqiy mavjud sub'ekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchi ekanligini, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishga aytiladi.

Har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o'zi va oilasi oldidagi burch va ma'suliyatini qay darajada his etayotgani va bajarayotganini

belgilaydigan ma'naviy mezon ham milliy istiqlol mafkuramizning mazmunini tashkil etadi.

«YAngi mafkuraning asl ma'nosi – deb yozadi Prezidentimiz, eskicha aqidalardan holi bo'lgan, mustaqil va yangicha fikrlovchi kishilarni tarbiyalashdan iboratdir. Busiz jamiyatni demokratik taraqqiyot yo'liga olib chiqib bo'lmaydi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng biz soxta mafkuraning yakka hokimligidan qutuldik. Ma'naviyatni, mafkurani zug'umlardan ozod qilib, erkin fikrga, milliy tafakkurga keng yo'l ochdik. Endigi asosiy vazifa kishilarimizning mustaqil fikrlashga o'rganishi, o'ziga ishonch ortib borishidir. CHunki tafakkur ozod bo'lmasa ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutilmasa inson to'la ozod bo'la olmaydi».

SHu sababli ushbu fanni uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida o'qitish yo'lga qo'yilgan.

Uzluksiz ta'lim tizimida milliy g'oya va mafkurani o'quvchi-talabalar ongiga singdirishda fan mazmuniga qo'yiladigan talablar. Kishilik jamiyatining rivojlanishi eng avvalo, kelajak avlodning kim bo'lib yetishishi, ularning bilim saviyasi, madaniyati va salomatligiga bog'liqdir. SHuningdek, ularning ongi va shuurida istiqlolimiz, erishgan yutuqlarimiz, millatimiz haqida keng tushunchalarni hosil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Har bir o'quvchi o'z yagona vatani O'zbekiston ekani, u bilan faxrlanishi, milliy g'ururli bo'lib voyaga yetishi, Vatanni asrash milliy burch ekani, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi uchun halol mehnat qilishi, yaxshi o'qishi, hunar o'rganishi orqali har bir shaxs o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishi, xalqimiz nufuzini oshirishga munosib hissa qo'shishi mumkinligini tushunib yetmog'i zarur.

Buning uchun uzluksiz ta'lim tizimi bosqichlarida o'quvchi-talabalarga milliy g'oyani singdirishda fan mazmunini quyidagi tarzda yoritib borish maqsadga muvofiq:

Maktabgacha ta'lim

Maktabgacha ta'lim muassasalarida

Bolalarda Vatan, uning ramzlari haqida tasavvurlar hosil qilish. Milliy g'oyani ko'rgazmali vositalar bilan singdirish.

- o'yin mashg'ulotlar orqali;
- ertak va rivoyatlar hikoya qilish;
- suhbat;
- sahnalashtirish, rolli o'yinlar;
- sayr va sayohatlar davomida Vatan tuyg'usini kuchaytirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy g'oya va mafkuraga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirishning amaliy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lmog'i lozim:

- mustaqil fikrlash;
- fikrini ravshan ifodalay olish;
- vijdonlilik, rostgo'ylik;
- mehnatsevarlik;
- burchni his va idrok qilish;
- o'z-o'zini anglash;
- mas'uliyatlilik;
- jamoaviylik.

Kichkintoylarni maktab ta'limiga tayyorlashda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- o'qish, o'rganishga havas uyg'otish;
- tabiatni asrab-avaylashga o'rgatish;
- kitobxonlikka qiziqtirish;
- ozodalik va salomatlik odobi;
- odob ko'nikmalarini paydo qilish;
- o'z hatti-harakati uchun mas'uliyatni tarbiyalash.

SHuningdek, bolalarga milliy g'oya va mafkurani singdirishda quyidagi masalalarga alohida ahamiyat berish kerak:

1. Millatimizga xos urf-odat, an'analar, insoniy fazilatlarni egallashga ko'maklashish.

2. «O'zbekiston – mening Vatanim» mavzuida turli tadbirlar o'tkazish, unda Vatan – viloyatlar, tumanlar, shahar va mahallalar birligi ekanligini anglatish.
3. Ona tilimizga e'tiborni oshirishga doir suhbatlar, mushoira va bahslar o'tkazish.
4. Vatan tabiati va undagi barcha narsalarni sevishtirish, ardoqlashni o'rgatish.
5. Atrof-muhitga ongli, ogoh va ziyrak munosabatda bo'lish madaniyatini tarkib toptirish.
6. Go'zallikni his etish, undan zavqlanishni tarbiyalash.
7. Ona-vatan haqidagi she'r va qo'shiqlarni yod olish, kuylashga o'rgatish.
8. Xalq og'zaki ijodida Vatan haqidagi mavzularni o'qish va o'rganish.

Umumiy o'rta ta'lim

“Odobnoma” (1-4-sinf)

- maktabgacha yoshda o'rgangan bilim va malakalarni takomillashtirish;
- millat va elatlar, ularning boy urf-odatlarini, an'analarini o'rganish, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish;
- din haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllantirish;
- muloqot madaniyatini tarbiyalash;
- to'g'rilik, mehnatsevarlik malakalarini o'zlashtirish;
- insoniy fazilatlar: vijdon, halollik, isrof, uvol, vatanparvarlik, botirlik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, savob so'zlarining lug'aviy ma'nosini bilish va ularga amal qilish;
- milliy g'oya va tushunchalarni singdirishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish;
- odob va axloqqa doir ko'nikmalarni singdirishda pedagogik texnologiya tamoyillariga tayanish;
- nima yaxshi-yu, nima yomon ekanini farqlashga, ezgu ishlar qilishga o'rgatish;
- tariximiz va boy madaniyatimizga oid lavhalarni namoyish etish;

- yurt tinchligi, obodligi, xalq osoyishtaligi haqida suhbatlar va bu jarayonlarda har bir o'quvchining burchlari haqida tushunchalar berish;
- haqgo'y va adolatli bo'lishga intilishni kuchaytirish;
- oila va uning sha'nini saqlash uchun qayg'urish tuyg'usini tarbiyalash;
- bilim, kitobni qadrlashga o'rgatish;
- qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'larga, ustoz-murabbiylarga hurmat va iltifot ko'rsatishga o'rgatish;
- Milliy bayramlar, ulug' ajdodlarimiz tavallud kunlarini nishonlash tadbirlarida faol ishtirok etishni tashkil etish.

“Vatan tuyg'usi” (5-6 -sinf)

O'quvchilarning milliy g'oya bo'yicha “Odobnoma” fani doirasida o'zlashtirgan tushunchalari 5-6-sinflarda o'qitiladigan “Vatan tuyg'usi” fanini o'qish jarayonida rivojlantiriladi.

“Vatan tuyg'usi” fani “Odobnoma” fani mazmunini takrorlamasdan, undagi nazariy va amaliy bilimlar majmuini real hayotdagi misollar bilan boyitib, chuqurroq o'rgatishga qaratilmog'i zarur.

“Vatan tuyg'usi” o'quvchilar ongida “Vatan”, “O'zbekiston - yagona Vatan” kabi tushunchalarni shakllantirish bilan boshlanadi. O'zbekiston xalqi, O'zbekiston xalqining milliy tarkibi, Davlat ramzlari kabi tushunchalar mantiqiy ketma-ketlikda, uzviylikda bayon etiladi. “Biz buyuk tarix egasimiz”, “Biz buyuk ma'naviyat egasimiz” mavzularini bayon etishni “Vatan tarixidan hikoyalar”, “Adabiyot” kabi fanlar bilan muvofiqlashtirish zarur.

Vatanga muhabbatni shakllantirishga doir mavzularni o'tishda o'quvchilarning yosh, fiziologik-psixologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ulara ajdodlar merosidan g'ururlanish, faxrlanish hissiyotini uyg'otadigan usul, vositalardan, animatsiyali elektron darslik, qo'llanmalar, milliy qadriyatlarimiz aks ettirilgan filmlar, badiiy asarlardan foydalanish kerak.

Fan mazmunini bayon etishda mavzulararo uzviylik, fanlararo integratsiya, mantiqiy ketma-ketlik tamoyillariga rioya etish lozim.

O'quvchilarga beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish oddiydan murakkabga tamoyiliga asoslanadi.

SHu maqsaddan kelib chiqqan holda "Vatan tuyg'usi" fani mazmuni orqali o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar.

5-sinfda:

- tug'ilib o'sgan makon – mahalla, qishloq, Vatan mohiyatini anglash;
- xalq og'zaki ijodi aks etgan asarlar, rivoyat, afsona va hikmatlar asosida ajdodlarimizning vatanparvarlik xislatlarini anglab yetish va ularga hurmat tuyg'usini shakllantirish;
- milliy va umumbashariy qadriyatlar tushunchalarining asosiy mazmun va ma'nosini bilishi;
- yozma ma'naviy-ma'rifiy merosimiz haqida ilk tushunchalarga egalik;
- xorijiy mamlakatlar taraqqiyoti tajribasidan xabardor bo'lishi;
- "Temuriylar davlati" – milliy davlatchiligimiz tarixining eng yorqin sahifalaridan biri ekanini bilishi;
- ma'rifatparvar jadidlar haqida tushunchaga ega bo'lishi, ularning asosiy maqsad va vazifalarini tahlil eta bilish;
- tarixni bilish – o'zlikni anglash garovi ekanini anglashi;
- millat va xalqning shakllanishida Vatan tuyg'usi asosiy omil ekanini sharhlay olishi.

6-sinfda:

- Vatan, mahalla, qishloq, diyor, yurt, o'lka, mamlakat, respublika so'zlarining ma'nosini sharhlay bilishi;
- o'zi tug'ilib o'sgan shahar yoki qishloq haqidagi ma'lumotlarni bilishi;
- Vatanning ulug'ligi, uni e'zozlash kerakligini anglab yetishi;
- Vatanga xiyonat qilish eng katta gunoh hisoblanishini bilishi;
- Vatan, ona-yurt haqidagi hikmatli so'zlar, naql-maqollarni ishlatish va sharhlay olishi;

- Vatan tuyg'usi, milliy g'urur, milliy iftixor tushunchalari mazmun va mohiyatini anglab yetishi;
- Mustaqillik, davlat haqida tushunchaga ega bo'lishi;
- Vatan va oila oldidagi farzandlik burchini bilishi;
- davlat ramzi va timsollarining mazmun-mohiyatini tushunishi;
- o'z huquq va burchlarini bilishi.

“Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari”

(7-9-sinflar)

O'quvchi-yoshlarning milliy g'oyaga doir “Odobnoma”, “Vatan tuyg'usi” fanlaridan olgan bilimlari 7-9-sinflarda o'qitiladigan “Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” fanini o'qitish jarayonida boyitib boriladi.

“Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” fanining vazifalari jumlasiga ijtimoiy hayotda yuz berayotgan turli xil diniy ekstremistik, xalqaro terrorizm, informatsion hurujlar, tajovuzkorlik harakatlariga qarshi o'quvchilarni g'oyaviy tarbiyalash, voqea-hodisalar mohiyatini to'g'ri talqin eta olish, sog'lom e'tiqod va dunyoqarashlarini tarkib toptirish, zararli g'oyalarga qarshi kurashish ko'nikma va malakasini, mafkuraviy immunitetni shakllantirish ham kiradi.

Mazkur fanning “Milliy g'oya” bo'limi bo'yicha o'quvchilar ongiga singdiriladigan milliy g'oya, mafkura, g'oyalarning turlari, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, o'zbek modeli, jamiyatni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari kabi masalalar o'quvchilarga tushunarli tilda sodda, tarixiy va hayotiy misollar orqali mavzulararo uzviylikka rioya qilingan holda izchil yetkazilishi lozim.

“Ma'naviyat asoslari” bo'limi ma'naviy-madaniy, odob-axloq me'yorlari, insoniylik fazilatlari, jamoaning tarbiyaviy ta'siri, yoshlarning o'z kuchi, bilim salohiyati va kelajagiga ishonch hislarini shakllantirishga xizmat qiladi.

7-sinfda “Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” fani istiqlolning millatimiz kelajagini ta'minlashdagi ahamiyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, fikr, g'oyalarning turlari, mafkura, taraqqiyot, mustaqillik, Konstitutsiya, madaniyat,

san'at, insoniy fazilatlar haqida bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

8-sinfda o'quvchilar tomonidan egallangan yuqoridagi bilim, ko'nikma va malakalar yanada mukammalroq tushunchalar bilan boyitilib, bunda xalqimizning kuchi va qudrati birdamlikda va hamjihatlikda ekanini o'quvchilar ongiga singdirish nazarda tutiladi. Strategik maqsadlar, mafkuraviy immunitet, milliy istiqbol mafkurasini, bosh g'oya va asosiy g'oyalar, insoniylik, sog'lom turmush turzi singari tushunchalar ijtimoiy hayotimiz bilan qiyoslash orqali o'rganiladi.

9-sinfda esa dunyoning mafkuraviy manzarasi, geosiyosat, diniy ekstremizm, terrorism, sivilizatsiya, taraqqiyotga yo'naltirilgan o'zbek modeli haqidagi tushunchalarni o'quvchilar ongiga singdirish orqali ularni mustaqillikni qadrlaydigan, burch va mas'uliyatni seza-digan, yurt kelajagi uchun javobgarlikni namoyon qiladigan fazilatlarini tarbiyalash asosiy vazifa hisoblanadi.

Milliy g'oyaning inson dunyoqarashi, e'tiqodi, tafakkuri, xarakter sifatlarini shakllantirishdagi murakkabligi, tarix, iqtisod, siyosat, ma'naviyat va boshqa fanlar haqidagi bilimlar bilan bog'liqligi fanlararo integratsiyani amalga oshirishni, ta'lim ta'lim jarayonini tashkil etishga, turli metodlardan foydalangan holda yondashishni taqozo etadi. Bir-biriga yaqin bo'lgan "G'oya nima?", "G'oyaning o'ziga xos xususiyatlari va turlari", "Mafkura nima?", "Taraqqiyot va mafkura" masalalarini olib qaraydigan bo'lsak, ularning o'zaro aloqadorligi va mohiyatidan kelib chiqqan holda "Davra suhbat", "Erkin minbar", "Guruhlararo bahs" singari o'quvchilarni faollikka undovchi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Muayyan masala yuzasidan o'quvchilarning qiziqishi, faolligini oshiradigan, izlanuvchanlikka asoslangan "Evristik muloqot", "Alohida holatlar tahlili", "Muammoli vaziyat", "Aqliy hujum" metodlaridan ijodiy foydalanish zarur.

"Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" fani mazmunining uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga rioya etilgan holda o'quvchilarda quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish ko'zda tutiladi.

7-sinfda:

- g'oya bilan fikrni bir-biridan farqlay olish;
- g'oyaning turlarini ajrata bilish;
- mafkura mohiyatini tushuntirib bera olish;
- taraqqiyot jarayonida mafkuraning rolini anglay bilish;
- bunyodkor va buzg'unchi g'oyalarga nisbatan o'z munosabatini bildiradi olish;
- ma'naviyat, mustaqillik tushunchalarining mazmunini bilish;
- vatanparvarlik hissining kamol toptirishi;
- millat tushunchasining mazmun va mohiyatini anglash;
- milliy iftixor tuyg'usini his qilish;
- bilimdonlik – ma'naviy barkamollik mezoni ekanini anglash, savodxonlik;
- o'zida huquqiy madaniyat asoslarini namoyon qilish;
- insonning tabiatga munosabati, ekologik madaniyat – oliyjanoblik belgisi ekanini anglash;
- san'atni go'zallik timsoli sifatida his eta olish;
- insonparvarlik – oliy fazilat belgisi ekanini bilish;
- inhr-muruvvat – yuksak fazilat ekanini anglash;
- do'stlik, o'rtoqlik, kamtarlikka ijobiy, manmanlikka o'z salbiy munosabatini bildiradi olish;
- milliy g'ururlilik ko'nikmalarini namoyon qilish.

8-sinfda:

- O'zbekistonning strategik maqsadi va o'z taraqqiyot yo'lini yoshiga mos ravishda tushunish;
- g'oyaviy bo'shliq tushunchasini sharhlay olish;
- mafkuraviy poligonning yadroviy poligondan nima uchun xavfliligini anglab yetish;
- mafkuraviy immunitet tushunchasini sharhlay olish;
- milliy istiqlool mafkurasi mohiyati, vazifalarini anglash;

- “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish” g’oyasining mazmunini to’laqonli tushunishi;
- milliy istiqlol mafkurasi g’oyalarining mazmuni va mohiyatini tushunib yetish va asoslay olish;
- milliy istiqlol mafkurasining bosh v asosiy g’oyalarini sharhlay olishi;
- insoniylik xislatlari haqida mustaqil fikrlay olishi;
- Navro’z, Hayit, Xotira va Qadrlash kuni hamda boshqa umumxalq bayramlari mohiyat-mazmunini anglashi;
- ichkilikbozlik, kashandalik, giyohvandlikning kelib chiqish sabablari va zararli oqibatlarini bilishi.

9-sinfda:

- “Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasini o’rganish;
- “Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari” fanining maqsad-mohiyatini bilish;
- “Biz hech kimdan kam bo’lmaganmiz, hech kimdan kam bo’lmaymiz ham!” shiori mazmun-mohiyatini bilish va tushuntirib berish;
- dunyoning mafkuraviy manzarasi, ko’p qutbli dunyo haqida tasavvurga ega bo’lish;
- ayrim davlatlarning g’arazli geosiyosati va uning ortida yotgan maqsadlarini tushunish;
- diniy ekstremizm, uning ko’rinishlari va zararli oqibatlari haqida ma’lumotga ega bo’lishi;
- xalqaro terrorizm: uning turlari, namoyandalari va zararli oqibatlarini bilish;
- antik, o’rta asrlar va zamonaviy taraqqiyot haqida tushunchalarga ega bo’lish;
- taraqqiyotning o’zbek modeli, jamiyatni isloh etishning besh tamoyilini anglab yetish;
- ma’naviyat, mustaqillik ma’naviyati haqida tushunchalarga ega bo’lish;
- ma’naviy barkamol inson tushunchasi va shaxs ma’naviyati mezonlarini bilish;

- Vatan, millat oldidagi burch, mas'uliyat haqida tasavvurga ega bo'lish;
- ona tilining roli va ahamiyatini anglash;
- mehnatsevarlik, kasb-hunar komillik nishonasi ekanini tushunish;
- uy tutish qoidalarini bilish, ro'zg'or yuritishda tejamkorlik madaniyatini shakllantirish;
- urf-odat, an'ana, to'y va marosimlar orqali mehr-oqibat tuyg'ularini uyg'otish;
- mahalla – jamoaviylikning noyob, an'anaviy milliy usuli, tarbiya maskani ekani haqida bilimlar majmuasiga ega bo'lish, uning mazmun-mohiyatini anglash.

3. *MILLIY G'OYANING MILLIY XUSUSIYATLARI.*

Milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlaming uzviy bog'liqligi. Milliy ma'naviy qadriyatlar -ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to'g'anoq bo'ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir. Milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlar orasida uzviy aloqadorlik, o'zaro ta'sir mavjud bo'lib. bu quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

1. Milliy qadriyatlar milliy g'oya uchun ma'naviy negiz, manba bo'lib xizmat qiladi.

2. Milliy g'oya qadriyatlarni boyitish, yanada yuksak bosqichga ko'tarish, odamlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish omili bo'lib hisoblanadi.

3. Milliy g'oya xalqning tub manfaatlari nuqtai nazaridan mavjud ma'naviy qadriyatlarga baho beradi, ijobiy jihatlarni rivojlantirish, salbiy holatlarni inkor etishning ma'naviy mezonini bo'lib maydonga chiqadi¹.

Ma'naviyat, qadriyatlar va milliy g'oya - jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohalaridir. SHaxs hayotida, umuman insoniyat taraqqiyotida, millat va davlat taraqqiyotining ma'lum davrlarida ma'naviyat va milliy g'oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo'lib maydogan chiqadi.

Demak, qadriyatlarning xilma-xil shakllari mavjud: moddiy va ma'naviy, milliy, mintaqaviy, umumbashariy qadriyatlar jamiyat hayotining sohalarini bo'yicha: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy,

madaniy, qadriyatlar, ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan axloqiy, diniy, huquqiy va boshqa qadriyatlar.

Moddiy qadriyatlar haqiqiy qadriyatlarning namoyon bo'lish vositalaridir (masalan. hayotda kerak bo'ladigan turli buyumlar). Insoniyat tarixi unga xizmat qiladigan, o'zi yaratgan, suyanadigan va qo'llab-quvvatlaydigan qadriyatlar dunyosining kengayishi, boyish va takomillashish tarixidir. Insoniyat o'zining

¹ Ergashev I. va boshq. Milliy istiqloq g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. –T.: Akademiya. 2005, 195-200 betlar

kundalik mehnati bilan yaratayotgan sun'iy narsalar dunyosida yashaydi. Biz yaratayotgan ushbu moddiy va ma'naviy boyliklar olamining gultoji, sarasi qadriyatlardir. Milliy g'oyaga asoslangan qadriyatlar va qadriyat mezonlari kishilarga, ularning xulq-atvorini tartibga solish va to'g'ri yo'naltirishga xizmat qiladi. Bunday o'ziga xos boshqarishning samaradorligi kishilarimizning milliy g'oya bilan bog'liq qadriyatlar olamini bilishga bog'liq.

Hozirgi zamonda ilg'or davlatlar hayotining demokratik tamoyillari ham inson qadrini nechog'li yuksaklikka ko'tarishi bilan baholanadi. Mamlakatimizdagi tub o'zgarishlar, islohotlarning mohiyati ham ana shu tamoyildan kelib chiqadi. Bu tamoyilni amalga oshirishda milliy va umuminsonix qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan yangicha dunyoqarash, sog'lom tafakkurning shakllanishi katta ahamiyatga ega.

Odamlar ongida milliy g'oyaga asoslangan mustaqillik, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, xalqning milliy ruhini uyg'otish va tiklash jamiyat barqaror rivojlanishining muhim sharti va kafolatidir. Prezident Karimov I. o'zining «o'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida milliy g'oya bilan bog'liq bo'lgan ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi xususida batafsil ma'lumotlar bergan.

Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida SHarq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq yillar davomida totalitar tuzumga qaramay o'zbekxalqining madaniy qadriyatlari, ao'analari saqlanib qolindi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar davomida yaratilgan bebaho ma'naviy, madaniy merosimiz davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda.

Ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi, milliy o'zlikni anglashi murakkab sharoitda - eski imperiya tuzumi barbod bo'lgan va yangi ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan bir sharoitda yuz berdi.

Dastlabki paytlarda bir asrdan ziyod totalitar tuzumga qaramay milliy g'oyaga asoslangan ma'naviyat «Inkorni - inkor» sifatida kechdi. Avvalgi tuzum qadriyatlarini inkor etishning o'zi siyosiy va madaniy ekstremizm xavfini tug'dirardi. SHuningdek, orqaga betartib qaytish jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin. Ana shu inkor etish jarayonida ekstremistik ruhdagi muxolifat vujudga keladi. U ma'naviyatga qarshi muxolifat bo'lishi mumkin.

Jangari millatchilik, diniy murosasizlik va «o'zirniki» bo'lmagan hamma narsaga nafrat bilan qaraydi. SHu boisdan bularni har tomonlama hisobga olgan holda ma'naviy tiklanishning ijobiy. bunyodkorlik, bir - birini to'ldiradigan siyosiy, iqtisodiy va madaniy dasturlar ishlab chiqish, amalga oshirishni zarur qilib qo'ydi.

«O'zining hayotini, oldiga qo'ygan maqsadlarini aniq tasavur qiladigan, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat hech bir davrda milliyg'oya va milliy mafkurasiz yashamagan vayashay olmaydi»¹.

Milliy o'zlikni anglash aynan ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish, o'z xalqining tarixi, madaniy merosini o'rganish, bugungi holati va ertangi istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ko'p asrlik tarixga ega. o'zbekistondagi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar yo urf-odat va marosimlarni tahlil qilish, bularning paydo bo'lishi juda qadim zamonlarga borib taqalishini ko'rsatadi. Masalan, «Avesto» bundan 2700 yil muqaddam 12 ming mol terisiga oltin xarflar bilan bitilgan bu asar paydo bo'lishi uchun undan avval ham kamida necha ming yillik davr o'tganligi, teran hayotiy tajriba va hikmatlar to'planganligi, shubhasiz. Bu asar yuksak madaniy hayot, falsafa va fan, hottotlik va mushtariylik rivojlanishi natijasida yaratilganligi uchun ham shu paytgacha o'z qimmatini yo'qotmadi.

Davrlar o'tishi bilan milliy ma'naviy qadriyatlar ham o'zgarib, rivojlanib, yangilanib. boyib boradi. Zamon ruhiga va taraqqiyot talablariga mos kelmay

¹ ***Islom Karimov, Asarlar. T.9. 221-bet.***

qolgan me'yor va talablar inkor etiladi. Yangicha tasavvur va yondashuvlar, fazilat va odatlar hayotga kirib keladi.

XXI asr boshiga kelib axborot texnologiyalari tufayli globallashuv jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Bu sharoitda milliy qadriyatlarga chetdan bo'ladigan ta'sir beqiyos darajada zo'rayadi. Bu ta'sir, bir tomondan, milliy madaniyatlarning boyishi, qadriyatlarning qayta baholanishi va yuksalishiga, ikkinchi tomondan esa, millatning ruhiyati va qadriyatiga yot bo'lgan odat va harakatlarning kirib kelishiga sabab bo'ladi.

Karimov I. «o'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» asarida xalqning madaniy qadriyatlari, madaniy merosi ming yillar mobaynida SHarq xalqlari uchun qudratli ma'naviy kuch bo'lganligiga alohida e'tibor berdi.

Bunda 1) sobiq mafkura tazyiqini; 2) ma'naviy va madaniy merosni tiklash o'zbekiston davlati siyosatida muhim vazifa sifatida belgilab olinganligini chuqur o'rganish, yoshlarni unga e'tiborini jalb etish muhim.

Jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni tiklashga milliy g'oya jarayoni sifatida qarashda quyidagi jihatlariga e'tibor berish lozim:

Xalqimiz istiqbol tufayli siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritganligi. o'z taqdirinio'zi belgilashning chinakam egasi bo'lganligi.

o'zining ma'naviy-tarixiy ildizlarini o'rganish imkoniyati yuzaga kelganligi, ammo uning juda murakkab jarayonlarda amalga oshirilayotganligi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida «siyosiy, madaniy ekstremizm xavfi» tug'ilishi mumkinligining hisobga olinganligi respublikada mustaqillikni saqlab qolishda, barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini chuqurroq, atroflicha, aniq misollar yordamida yoritish o'zining amaliy ahamiyatiga ega.

Milliy ma'naviy meros, qadriyatlarning tarkibi. Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning tarkibi quyidagilardan tashkil topgan: Tarixiy meros va tarixiy xotira.

Madaniy yodgorliklar, osori-atiqalar, qadimiy qo'lyozmalar. Ilm-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari. San'at va milliy adabiyot. Axloqiy fazilatlar. Diniy qadriyatlar. Urf-odat. ao'ana va marosimlar. Ma'rifat. ta'lim-tarbiya va

hokazolar. Milliy ma'naviy qadriyatlarning ana shu har bir ko'rinishi muhim ahamiyatga ega. Bularning har birini misollar tariqasida chuqur tushuntirib berish mumkin.

Demak. milliy ma'naviy qadriyatlarning har bir tarkibiy qismi xalqning mustaqilligini mustahkamlash va kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Milliy istiqlol g'oyasining amal qilish tamoyillari quyidagilardan iborat: Insonpan arlik tamoyili. Yijdon erkinligi.

Fikrlar rang-barangligini qaror toptirish - demokratik jamiyat barpo etishning asosiy sharti. Umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi tamoyili. Milliy qadriyatlarga sodiqlik.

SHaxs qadriyatlari, inson ma'naviy olami bilan bog'liqligi. Oila - jamiyatning muqaddas uyi, eng asosiy tarbiya maskani. Jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlash-tirish. Hayotni erkinlashtirish. SHaxs erkinligiga tayanadi. Mustaqillik tufayli milliy-ma'naviy tiklanishga imkoniyat yuzaga keldi. Prezidentimiz Karimov I. "ma'naviy o'nglanishni amalga oshirmasdan iqtisodiy o'nglanish mumkin emas"ligini aytib, "ma'naviyat xalqni, millatni millat qiladigan kuch-qudratdir" degandi. SHu sabab mustaqillik yillarda johon sivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk allamalarning merosini yangidan ijodiy o'zlashtirish o'ayotiy ehtiyojga aylandi. Imom Buxoriy, at. Termiziy, B.Naqshband, Ahmad YAssaviy, al-Xorazmiy, Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy kabi buyuk zotlar merosini o'rganio' demokratik jamiyatning milliy ma'naviy negizlarini tashkil qiladi. Prezident Karimov I. 1992 yilda yozgan "o'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-ahloqiy negizlarini ko'rsatib bergan edi:

- 1) umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik,
- 2) xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish,
- 3) insonning o'z imkoniyatlarin erkin namoyon qilish,
- 4) vatanparvarlik.

Bu tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishda muhim vazifa va manba hisoblanadi.

I.A.Karimovning "Milliy mafkura — davlatimiz va jamiyatimiz qurilishida biz uchun ruhiy kuch-quvvat manbai" nutqining ahamiyati.

I.A.Karimov bu nutqini Milliy istiqlol mafkurasi konsepsiya-sining asosiy tamoyillariga bag'ishlab ilmiy va ijodiy jamoatchilik vakillari bilan 2000 yil 6 apreldagi uchrushuvda so'zladi. Nutq jamiyatimiz hayotidagi eng muhim masalalardan biri milliy mafkura xususida bo'ldi. Bugungi kunda nafaqat iqtisodiy hayotimizda, balki, ongu tafakkurimizda ham yangilanish o'zgarish jarayoni kechmoqda. Pirovard maqsadimiz bo'lgan ozod va obod, erkin va farovon hayot qurishdagi intilishlarimizda biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbai, ilmiy asos - bu milliy g'oya, milliy mafkuradir. Fikr bor joyda baxs bo'ladi, baxs bor joyda haqiqat yuzaga keladi. Milliy g'oya, milliy mafkura ma'no-mohiyati, biz uchun juda zarur va kerakligini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin:

1. o'z kelajagini qurmoqchi bo'lgan har qanday davlat o'z milliy g'oyasiga suyanishi va tayanishi zarur. Davlat tizimi, uni boshqarishdagi siyosat aniq mafkura asosiga qurilmog'i lozim. Oldin g'oya paydo bo'ladi. Odamlarimizni olijanob maqsad atrofida birlashtirishimiz zarur. Ongni. tafakkurni o'zgartirmisdan turib, biz ko'zlagan oliy maqsadga erishib bo'lmaydi.

2. Biz totalitar tuzumdan erkin va ozod tuzumga o'tish sharoitida yashamoqdamiz. SHu davrda maqsadimiz aniq bo'lishi kerak. Maqsadga puxta ishlangan mafkura asosida yetishish mumkin.

3. YOshlarimizni qanday g'oya negizida tarbiyalaymiz, qanday mafkura va tafakkur ular uchun qurol bo'lib xizmat qiladi?

4. Hech qanday g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymasligimiz kerak. Eng ta'sirchan kurash awalo, mafkura maydonlarida olib borilmoqda. Lekin hali suyagi qotmagan yoshlarimiz soxta g'oyalar orqasidan ergashib ketmoqda.

5. Milliy g'oya millatning o'zligini anglashga, qadriyatlarni tiklashga xizmat qilmog'i kerak

6. Milliy mafkuramiz: a) milliy qadriyatlarga va b) umuminsoniy qadriyatlarga tayanishi zarur.

7. Milliy mafkura hech qanday shaklda davlat mafkurasi maqomiga ko'tarilmasligi kerak.

"Foyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish. olishish mumkin." Ozod bo'lsang ozod bo'l, erkin bo'lsang erkin boi, mustaqil bo'lsang mustaqil bo'l. o'zbek millati oqko'ngil millat. Milliy mafkura o'zlikni anglashga xizmat qiladi. o'zlikni anglash o'z tarixini bilishdir. Tarixini bilish nasl-nasabini anglashdir. Milliy g'oya birlashtiruvchi kuch, qanot boiishi shart.

Milliy g'oya ma'naviy negizida umuminsoniy qadriyatlar va milliy xususiyatlarning e'tirof etilishi:

1. *Umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi* - barcha xalqlar uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi. insoniyatning umumiy manfaatiga mos keluvchi moddiy va madaniy hodisalar, mezonlar, qadrli jihatlarning ustuvor boiishiga tayangan g'oyalar asosidagi faoliyat qadriyatlardir. Har bir odam jinsi. irqi, millati, yoshi, kasbi, eiiqodidan qat'iy nazar avvalambor bashar farzandi, insondir. SHu umumiy mohiyat barcha odamlar, millatlar uchun birday ahamiyatli va qadrli boigan predmet, hodisa, jarayon, munosabatlarni farqlashga imkon beradi.

Umuminsoniy qadriyatlar insoniyat tarixining yaxlitligini ifoda-laydi, u davrlar o'tishi va ijtimoiy hayotning o'zgarishi bilan bir qatorda takomillashib, rivojlanib, tobora ko'proq xalqlarni, millatlarni, inson-larni yaqinlashtiruvchi, birlashtiruvchi va kamol toptiruvchi kuchga aylanib boradi.

Insonparvarlik va ijtimoiy adolat, erkinlik va ozodlik, barqa-rorlik va farovonlik, ezgulik va taraqqiyotga boigan intilish umuminsoniy qadritlarning muhim jihatlaridir.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlar uzviy bogiiq va ta'sirlashuvda o'zaro boyib boradi. Umuminsoniy ahamiyat kasb etgan milliy qadriyatlar barcha xalqlar uchun muhim qadriyatga aylanadi. SHu jihatdan, umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan mazmunan kengdir, kelib chiqishi bo'yicha barcha odamzodga tegishlidir. Hech bir millatning boshqa xalqlardan ajralgan holda rivojlana

olmasligi. ayniqsa. hozirgi davrda biror xalqning yakka o'zi jahon sivilizatsiyasidan alohida holda taraqqi> etmasligi ma'lum.

Umuminsoniylik milliy va shaxsiy qadriyatlar orqali namoyon bo'ladi. Umuminsoniylikning ustuvorligi - bu. har bir inson baxtli-saodatli, ozod va erkin bo'lishi, jamiyatda amalga oshirilayotgan barcha ishlar. o'zgarish va islohotlar inson manfaatlariga xizmat qilishi lozim. degan qarashga asoslanadi. Ana shu sababdan ham, inson erkinligi, uning haq-huquqlarini urminlash, qonun ustuvorligi. demokratiya, fikrlar rang-barangligi va ijtimoiy plyuraizmga erishish umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga amal qilish sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda jahon davlatlarning ichki va tashqi siyosatida ana shu tamoyillarga amal qilinishi - umuminsoniylikning ustuvorligi g'oyasiga ta'anish. bu g'oyani amalga oshirish sifatida baholanmoqda.

Har bir millatning mavqei uning insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissi bilan o'lchanadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qarama-qarshi qo'yish milliy hudbinlik yoki xalqaro nizolarga olib kelishi. natijada, butun insoniyat sivilizatsiyasi rivojiga to'siq bo'lishi mumkin. SHuning uchun, umuminsoniy ahamiyat kasb etgan qadriyatlarni qayerda va qachon shakllangan, qanday millat vakillari yaratganidan qat'iy nazar ehtirom bilan tan olish hamda qabul etish taraqqiyotga xizmat qiladi. Mustaqil respublikamizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligiga, xalqimizning jahon hamjamiyati bilan birga rivojlanish yo'lidan borishiga alohida e'tibor berilayotgani ham shundan.

Demak, milliy istiqlol g'oyasi quyidagi umuminsoniy qadriyatlarni e'tirof etadi va o'ziga singdirib oladi:

Qonun ustuvorligi.

Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash.

Turli millat vakillarini, ularning madaniyatini va qadriyatlarini hurmat qilish, ular bilan hamkorlik qilish, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik. Dinlararo bag'rikenglik.

Dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik.

Turli xalqlarning ilg'or tajribasini, insoniyat madaniyati yutuqlarini o'rganish va egallab olish. Inson - eng oliy qadriyat. Vatan - eng oliy qadriyat va h.k. 2. Milliy qadriyatlar - millat uchun muhim ahamiyat kasb etadigan, etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar shakllidir. Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi tufayli milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Zero, milliy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biri. Xalqimizning asrlardan-asrlarga meros tarzida kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Ular ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi, boshqa xalqlarnikiga o'xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va ao'analar bilan tavsiflanadi.

Ma'lumki, qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi. SHu sababli ular mahalliy, milliy, mintaqaviy shakllar va umuminsoniy shakl mazmunda mavjud bo'ladi. Mahalliy qadriyatlarning eng yetuklari va milliy manfaatlarga, moslari asta-sekin saralanib, umummilliy darajaga ko'tariladi. Milliy muhit qadriyatlarni yaratish va saralashning asosiy manbaidir: u milliy qadriyatlarning eng yaxshilarini voyaga yetkazib, jahon miqyosiga olib chiqadi.

Bu tamoyil va qadriyatlar o'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning o'z milliy qadriyatlarini asrab - avaylashi, kelajak avlodlarga yetkazishi uchun to'la imkoniyatlar yaratilishini ifodalaydi. o'tmishdagi bobolarimiz qoldirgan meros, madaniy boyliklar, mumtoz qadriyatlarni hurmat qilish, ularni o'rganish, ular zamiridagi bu tamoyilning asosiy jihatlaridir. Har bir millatning tili. qadriyatlari, urf-odatlari, ao'analarini hurmat qilishni ta'minlash milliy istiqloq mafkurasining amal qilishida umuminsoniy andozalar namoyon bo'lishi uchun asoslar yaratadi. Demak. o'zbek xalqining milliy xususiyatlarida:

1. Oila - muqaddas tushuncha. Oila qurish - o'ta mas'uliyatli ish. «Oila - eskilik unsuri emas». U muqaddas. oilada millat kelajagi mujassam. YOshlarni

tarbiyalashda, kamolga yetkazish, ilm-hunar berish, uyli-joyli qilish - aksariyat oilalarning eng oliy maqsadidir...

2. Mahalla - o'z-o'zini boshqarishning o'zbek xalqi yaratgan eng katta yutug'i, oiloma shaklidir. Mahalla - tarbiya maskani, har bir oilaga tayanch va suyanch ekanligi ko'pchilikka ayon.

3. Qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari uzoq tarixga ega bo'lib, asrlar davomida bu borici muayyan qadriyatlar shakllangan. «Yon qo'shnim - jon qo'shnim», «Xovli olma - qo'shni ol . «Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni afzal» va h.k.

4. Keksalarga hurmat - inson hayotiy tajribasi davomida shakl-langan qadriyat. Jonli tabiatda hayot uchun kurash qonuniyati mavjud. Nasl qoldirish, yagi avlodga mehr qo'yish, uni oyoqqa turg'azish jon fido qilish hollari aksariyat hayvonlarda kuzatiladi. Ammo, qariyalarni e'zozlash. keksalarga ehtirom, mehr-muruvvat ko'rsatish - insoniy fazilatdir. Bularsiz milliy g'oyamizni tasavvur eta olmaymiz. «Keksani qopda saqla, o'ligini hafta saqla»...

5. Ayol zotiga ehtirom - insoniyatning yarmidan ko'pini tashkil etadigan xotin-qizlarga bo'lgan munosabatning eng yuqori cho'qqisidir. Demokratiyaning eng muhim yutug'i - har ikki jin^ teng huquqli va erkin bo'lishini ta'minlashdir...

6. Onaga bo'lgan hurmat va sadoqat - eng oliy qadriyatdir. SHuning uchun Vatanga, milliy tilga nisbat berilganda ona nomi qo'shiladi. Milliy istiqlol g'oyasi onalar uchun, jamiyatdagi barcha ayollar uchun farovon hayot, go'zal turmush yaratishni maqsad qilib, xotin-qizlarning erkinligi va o'z qadr-qimmatini anglab yetishiga, o'z salohiyat va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga sharoit yaratishni bosh g'oyasida mujassamlashtirgan.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida Karimov I. rahbarligida olib borilayotgan siyosatning ustuvor yo'nalishlari ayollarning davlat va jamiyat qurilishidagi rolini oshirish, oilani har tomonlama mustahkamlash, oila va ta'lim tizimida yoshlarni barkamol etib tarbiyalash, aholi salomatligini mustahkamlash borasida amalgam oshirilayotgan ishlarning negizida ham ana shu g'oyalar yotibdi.

O'zbekistonda 16-17 fevral kunlari bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada prezidentimiz ma'ruza qilib, quyidagilarni ta'kidladi: "Har yili ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh qilishga yapli ichki mahsulotning 10-12%i, davlat byudjeti xarajatlarining 35%ini yo'naltirayotgan O'zbekiston tajribasini o'rganish"¹.

Prezidentimiz tomonidan 2012 yil "Mustahkam oila yili" deb e'lon qilindi. Unda yurtboshimiz: "Jamiyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan oila institutitini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, bugungi kunda yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarish, bu borada mahallaning roli va ahamiyatini kuchaytirish, xotin-qizlar, opa-singillarimiz uchun yanada keng imkoniyatlar yaratish, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk va barkamol avlodni tarbiyalash kabi o'z oldimizga qo'ygan boshqa muhim maqsadlar barchaga ma'lum"², - deya aytib o'tganlar.

"Ota-ona va farzandlik burchi" mavzusini o'rganar ekanmiz, uni o'qitishda quyidagilardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. Oila kodeksi va boshqa me'yoriy hujjatlar;
3. Qadimgi yozma manbalar;
4. Qadriyatlar (ma'naviy, axloqiy, diniy, an'anaviy);
5. Islom ta'limoti manbalari (Qur'on, hadislar);
6. Ta'limiy-axloqiy asarlar;
7. Xalq pedagogikasi manbalari (maqollar, hikmatlar, qo'shiqlar);
8. Adabiyot va san'at asarlari.

¹ Prezident I.Karimovning "Yuksak bilimli va intellectual avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish ma'ruzasidagi nutqi. "XXI asr", 23-fevral 2012-yil

² Prezident I.Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. "Adolat". 20-yanvar 2012-yil

4. OTA-ONA, FARZANDLIK BURCHI MAVZUSINI O'QITISH.

(1 soatlik dars ishlanmasi)

Fanning nomi:	Milliyistiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari
Dars o'tiladigan sinf:	9-sinf
Mavzu:	Ota-ona, farzandlik burchi

Ta'limiy maqsad:

O'quvchilar ongiga ota, ona, farzand tushunchalarini chuqur singdirish.

Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarda ota va onaga chuqur hurmat, farzandlik burchi, milliy tarbiya, oila muqaddasligi, haqidagi tushunchalarni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad:

O'quvchilarning fikrlash doirasi, o'z fikrini himoya va bayon qila olish qobiliyatlarini o'stirish.

Dars turi:	Aralash
-------------------	---------

Darsda foydalaniladigan metodlar:

Aqliy hujum, guruhlarda ishlash, o'z-o'zini baholash.

Dars jihozi:

Darslik, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobi, tarqatma materiallar, izohli lug'at, qo'shimcha adabiyotlar, kompyuter va slaydlar.

Darsning blok chizmasi:

№	Reja asosida dars bosqichlari	Sarflanadigan vaqt
1.	Tashkiliy qism. Sinfda psixologik iqlim yaratish.	2 minut
2.	Reja asosida yangi darsning borishi: Shu jumladan: 1) guruhlarda ishlash 2) guruhlar taqdimoti	30 minut 15 minut 15 minut
3.	Darsning samarasi haqida o'quvchilar bilan suhbatlashish, baholash, rag'batlantirish	5 minut
4.	Uyga vazifa topshirish, xayrlashish	3 minut

Darsning rejasi:

1. Bolajonlik o'zbek xalqining o'ziga xos xususiyati.
2. Ota-ona va oilaviy munosabatlar.
3. Farzandlik burchi.

Dars bayoni:

O'zbek xalqi tabiatan bolajon xalq. Bolalarga nisbatan shafqatlilik, bag'rikenglik, mehridaryolik, o'ta fidoyilik xalqimizning xos xususiyatlaridandir. Shu boisdan ota-onalarimiz farzandlarining milliy axloq-odob qoidalarini o'zlashtirishi, puxta bilim olishi, hunar egallashi va ularga amal qilishi yo'lida bor kuchi va imkoniyatlarini sarflaydilar. Chunki oilada bolani to'g'ri tarbiyalash - shu oilaning kelajak taqdiri ishonchli qo'llarga o'tishi, mahalla-ko'y, qarindosh-urug'lar orasida mazkur oilaning obro'-e'tibori baland bo'lishi garovidir. Bola tarbiyasiga befarqlik oila taqdiriga bepisand qo'l silkish bilan baravar ekanini aksariyat yurtdoshlarimiz juda chuqur anglaydilar. Xalqimizning «*Men kuyaman bolamga, bolam kuyar bolasiga*» degan iborasi mag'zida ham, aslida, ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi mana shu anglangan burch ifodalangandir.

Farzand er-xotinning mehr-muhabbati asosida qurilgan ixtiyoriy ittifoq mevasidir. Abdurauf Fitrat aytganidek: «...*Uylanishning birinchi maqsadi farzanddir. Avlodni tarhiyalash insoniyatning xizmatidir. Qachonki biz yaxshi axloq egasi bo'lgan farzandlarni tarbiyalasak, shundagina bo yonimizdagi bu xizmat majburiyati soqit bo'ladi. Kimki, badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi. Jamiyat ularning farzandlaridan bezor bo 'ladi. Xush va yaxshi axloqqa ega bo 'lgan farzand imon sohibi bo 'lgan ota-onadan bo 'ladi, agarda ota-ona axloqsiz bo 'lsalar, ularning tarbiyalari soyasida o 'sgan farzand ham badaxloq bo 'ladi. Binobarin, kuyov va kelin xushaxloq bo 'lishlari eng yaxshi fazilatdir*»¹.

Odamlarning turmush sharoitlari o'zgarishi bilan ularning moddiy olam haqidagi tasavurlari, nuqtayi nazarlari, tushunchalari, odob va axloq normalari, hatto tafakkur tarzi ham o'zgarishi mumkin. Bunday o'zgarish kishilarning umumiy manfaatlari asosida, turmushni yanada go'zallashtirish va osonlashtirish maqsadida ro'y beradi.

Bizning bugungi sharqona madaniyatimizda ham xalqimizning asrlar davomida sayqallanib kelgan urf-odatlari, an'analari, axloq normalari o'z mujassamini topgan.

Oiladagi o'zaro muloqotning samimiyligi, mazmundorligiga erishish, uni bolalarning xulq-atvoriga, ma'naviy kamolotiga ta'sirini kuchaytirish ko'p holda ota-ona o'rta-sidagi va ularning bolalar bilan o'zaro munosabatiga bog'liqdir. Ota-onaning oiladagi moddiy, tarbiyaviy va o'zaro shaxsiy masalalar yuzasidan bir-biriga munosabati samimiy, urning xotinga, xotinning erga o'zaro hurmati, iffati asosiga qurilsagina, bunday oilada musaffo ma'naviy muhit vujudga keladi. Otaning onaga, onaning csa otaga betakallufigi, bir-birlariga qo'pol, noinsoniy muomalasi, hayotiy qiyinchiliklarni yengishdagi jizzakiligi, bola tarbiyasidagi, oilaning moddiy ta'minotidagi kelishmovchiliklar shu oiladagi o'zaro munosabatlarning buzilishiga olib keladi.

¹ Abdurauf Fitrat. «Oila». Toshkent. «Ma'naviyat» nashriyoti, 1999, 25-bet

Aksincha, ota-ona munosabatidagi sabrlilik, oilaviy yumushlarni o'ylab, aql-zakovat bilan birgalikda maslahatli hal etishi juda ko'p noxushliklarning oldini oladi. Ularning bir-biriga mehribonligi, farzandlariga bir xilda muomalada bo'lishi, har ikkala tomonning qarindosh-urug'lariga, qo'ni-qo'shnilariga bir xilda mehr-muhabbat, hurmat bilan qarashi, bir so'zligi, shuningdek, ichish, chekish, yolg'onchilik, maishiy buzuqlik, dimog'dorlik, manmanlik va boshqa shu kabi illatlardan xoli bo'lishi oilada muomala madaniyati yuksak bo'lishini ta'minlovchi omillardir.

Bu masalaga Rizouddin ibn Faxruddin shunday yondoshadi:

«Xotunga go'zal muomala qiluvchi oliy tabiatli erlar shariat-u aql tarafidan man etilgan narsalarga xotunlarini yo'llamaydilar va eng aziz bolasiga bo'lgan mehr-shafqati darajasida oqibat ko'rsatib, xotunlarini barcha mashaqqatdan saqlaydilar, qurblari yetmagan xizmatga buyurmaydilar...

Xotun bilan bo'ladigan muomala haddan oshish-u haddan past bo'lishi emas, balki adolat bilan bo'lishi kerak. Tarbiyali er xotuniga qarshi go'zal muomalada bo'lgani kabi o'zining ulug'vorligini ham saqlab qolar, hurmat ham etar, hurmat ettira ham bilar»¹.

Odatda o'zbek xonadonlarida oilaning moddiy ta'minoti erkak zimmasida bo'ladi. Oila jamg'armasini tejamkorlik bilan o'z o'rnida sarflash, isrofgarchilikka yo'l qo'ymasdan, oilada qut-baraka bo'lishini ta'minlash esa ayolning vazifasi. Ko'rinadiki, xonadonning boy, to'q, farovon turmushi er-xotinning ikkalasiga ham birdek bog'liq. Oila farovonli-gini ta'min etish bilan unda kamolga yetayotgan farzandlarning kelgusida moddiy farovon turmushiga asos solish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, davlat va jamiyat boyligi uchun zamindir. Abdurauf Fitrat aytganlaridek:

«Ma'lumki, yashash uchun pul va pul topish uchun sa'y va amal lozim. Ayollar erkaklarga o'xshab hayot mush-kulotlariga tob bermay, turmush tahliliga qodir emaslar. Tajribasizlik va zaif mijozlari ustiga ayol zoti ba'zi yillari to'qqiz oy «homiladorlik» yukini ko'tarib yuradi, bola tug'ilishidan boshlab tarbiyasi bilan

¹ **Rizouddin ibn Faxruddin.** «Oila». Toshkent, «Mehnat» nashriyoti, 1992, 35-bet.

mashg'ul bo'ladi. Yana bo-rib ishlab pul topish esa ularga mushkuldir. Ishlab, sa'y-harakat qilib pul topish bu erkaklar burchidir. Erkaklar bor kuchlarini ishga solib, pul topib, bir qismini ahl-u ayollariga ehtiyojlari uchun sarf qilishlari lozim. Puli va boyligi bor kishilar bola-chaqalari va ahl-u ayollarining nafaqalari xususida ziqnalik qilsalar yo nafaqalarini berib, minnat qilsalar, yoki oila a'zolarining o'lmasligi uchun bosh-ko'zdan sadaqa berib, o'zlari boshqa joylarda aysh-ishrat bilan mashg'ul bo'lsalar, zulm va insofsizlik qilishlariga shubha yo'qdir. Zulm va insofsizlik esa islomda kufr va haromdir. Bas, erkaklarning bu harakatlari ham haromdur»¹.

Ko'ryapsizki, oila ishlarida faqat va faqat halol bo'lmoqlik, barcha davrlarda millatimizning so'nmas qadriyati bo'lib kelgan.

Farzand tarbiyasi keng qamrovli, uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo'lib, uning o'ziga xos talab-ehtiyojlari mavjud. Jumladan, bilingki, uka yoki singlingizni so'kishga, qo'pol gapirishga o'rgatish, uni haddan tashqari erkalash nomaqbul uslub hisoblanadi. Xalq pedagogikasida ta'kidlanganidek, «Bola aziz, odobi undan aziz», «Bola tarbiyasi beshikdan», «Bolaning erkasi — bitning sirkasi», «Erkalatsa onasi, tantiq bo'lar bolasi», «Qizni erkalatsang, joningga tegar, o'gilni erkalatsang, burningga tepar»².

Erka va tantiq qilib o'stirilgan bolada xudbinlik, man-manlik, kibr-u havo, o'jarlik kabi qusurlar paydo bo'ladi. Bola ulg'aygan sayin bu xususiyatlar chuqur tomir otib, hayotda o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi. Bolaning erkatoyligi, tantiqligi qancha oshsa, u ota-onani shuncha tashvish va tahlikaga soladi.

Afsuski, ba'zi oilalarda bolalarning birini nihoyatda avaylashadi, barcha talab va istaklarini muhayyo etishadi-yu, ikkinchisini bo'lar-bo'lmasga turtkilashaveradi. Buning oqibatida ota-onaga nisbatan ikkala bolada ikki xil munosabat paydo bo'ladi. Faqat ota-onaga emas, farzandlarning bir-biriga bo'lgan munosabatiga ham darz ketib, o'rtada o'zaro nafrat tug'ilishi ham hech gap emas. Ota-onaga qarshi gapirish, hurmat-izzatini joyiga qo'ymaslik, aytganlarini

¹ **Abdurauf Fitrat.** «Oila». Toshkent, «Ma'naviyat» nashriyoti, 1998, 37-bet.

² **R. Usmonov.** «Saodatnoma». Toshkent, «o'qituvchi» nashriyoti, 1995, 245-bet

bajarmaslik, hattoki, ularni haqorat qilish kabi noaxloqiy holatlarning paydo bo'lishiga ham ularga nisbatan munosabatning har xilligi sabab bo'ladi.

Shu tufayli ham oilada ota-ona barcha farzandlariga nisbatan bir xilda mehr-muhabbat, talab qo'ymog'i nihoyatda muhim. Bu borada Rizouddin ibn Faxruddin shunday deydi: «Adolat-u insof o'rgatmak uchun hojatlarni o'tganlik va keraklarni tahsil etganingizda hammasini barobar ko'ringiz, hadya berganingizda barchasiga bir xil beringiz, biriga yashirib bir narsa berib-da: «Ehtiyot bo'l, aka-ukalaringga bildirma» demoq kabi narsalardan saqlaningiz, chunki bunday etmak ularga jabr, zulm, aldamoq, xiyonat kabi narsalarni o'rgatadi. Baxillik va hubbinnafs (o'z-o'zini sevmak) kabi buzuvchilik urug'larini ko'ngillariga sochadir»¹.

Oilada har bir bolaning xatti-harakatiga nisbatan rag'batlantirish yoki qattiqqo'llik bilan munosabatda bo'lish, tanbeh berish, jazolash tarbiyada sinalgan usuldir. Ona bolani qilgan xatti-harakati uchun jazolayotganda, nasihat qilayotganda ota uning tarafini olmasligi, ota tarbiyaviy ish olib borayotganda esa ona boshqacha gapirmasligi lozim. Bu bolani ikkiyuzlamachi, hech qanday tanbeh, jazodan qo'rqmaydigan, yolg'on so'zloychi, ota-onaning har ikkalasini ham hurmat qilmaydigan qilib qo'yadi.

Bola tarbiyasiga oilaning har bir a'zosi, qo'ni-qo'shni, mahalla, maktab, jamoatchilik birdek mas'uldir. Shuning uchun bola tarbiyasida barchaning talabi, munosabati umumaxloq meyorlariga mos bo'lmog'i zarur. Tarbiyachilar o'rtasidagi tarbiya usullarining, talab va fikrlarning har xilligi bolani tarbiyasizlikka olib keladi.

Bobo, buvi, ota-ona va atrofdagi katta yoshdagi kishilarning xatti-harakatlari, yurish-turishlari, muomalasi, jamiyatga, tabiatga munosabatlari namuna sifatida juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bolaga aqliy, axloqiy, estetik, diniy, mehnat tarbiyasini berishda kattalar, jumladan, Siz ham namuna ko'rsatishingiz kerak.

Ayrim earb mamlakatlarida, hatto yon-atrofimizdagi ba'zi musulmon davlatlarida ham faqat siyosiy va iqtisodiy muammolarga ustuvor masala sifatida

¹ **Rizouddin ibn Faxriddin.** «Nasihat». Toshkent, «Choipon» nashriyoti, 1993, 65-bet

qaralib, yoshlar tar-biyasining zamon oqimiga tashlab qo'yilgani juda ko'plab noxush holatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Yoshlar o'rtasida millatchilik, irqchilik, diniy aqidaparastlik, axloqiy buzuvchilik, giyohvandlik, e'tiqodsizlik singari xavf-li illatlar tomir otib ketdi. o'tgan avlodlarning ma'naviy-ruhiy qadriyatlariga bepisandlik, ommaviy madaniyat nomi ostidagi madaniyatsizlik, insoniy odob-axloqning har qanday me'yorva chegaralarini sesknmay toptash bu yoshlarning kundalik turmush tarziga aylanib bormoqda. Afeuski, ommaviy axborot vositalari — xalqaro internet tizimi, televideniye va radioeshittirishlar orqali olib borilayotgan axborot xuruji davomida bu tizginsiz turmush tarzi bizning hayotimizga ham kirib kelishga urinyapti. Ayniqsa, hali oq-qoraning farqiga yaxshi bormaydigan ayrim yoshlarimiz bu hujumlarning qurboniga aylanib qolishi xavfi bor. Shunday ekan, Sizning dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarga o'tkinchi, bizga aloqasiz narsa sifatida shunchaki qaramay, balki ularning kelib chiqish sabablari, tub ildizlariga nazar solib xulosa chiqarishga urinishingiz nihoyatda muhimdir. Bu masalaga doimiy e'tibor bilan qarayotgan o'zbekiston Pre-zidenti ta'kidlaganidek:

«Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini angla-shi, erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimiz-ning jahon hamjamiyatida munosib obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin»¹.

Oila muhitida farzandlarning ota-onalar oldidagi o'z vazifalari, azaliy burchlari mavjud. Albattaki, Siz oilangizdagi ota-onangiz, buvi va bobolaringizning o'zaro munosabatlaridan andaza olishga harakat qilasiz. Oilada ota-ona yoki boshqalar bilan biron masalada maslahatlashmoqchi bo'lsangiz, ularning holiga, vaqtiga qarab, aytiladigan fikrni obdan o'ylab, ularni ranjitmaydigan qiiib gapirishga harakat qilish lozimdir. Bunda har bir yigit-qiz kim bilan, qachon va nima haqda gaplashish mumkinligini nozik idrok etmog'i

¹ Islom **Karimov**. «Yoshlarimiz — xalqimizning ishonchi va tayanchi». Toshkent, «Ma'naviyat» nashriyoti, 2006, 49-bet

muhimdir. Og'ziga kelgan gapni to'g'ri kelgan odamga (hatto u juda yaqin kishingiz bo'lsa ham!) aytaverish kishining befarosatligidan dalolat beradi.

Ota-ona va farzandlar hamda oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi muloqotni yo'lga solib turuvchi vosita, aibattaki, ularning shirin tili hisoblanadi.

Alisher Navoiy «Mahbubul-qulub» asarida shirin tilni shunday tashbihlarda ifoda etadi:

«Ul ko'ngilgakim qattiq so'zdin reshdek bo'lg'ay, achchiq til zahar olud nishdek ho'lg'ay. Ko'ngilda til sinoni jarohati hutmas, anga hech nima malham yerin tutmas. Har ko'ngulki til sinonidin jarohatdur, ham yumshoq so'z va shirin til anga malham va rohatdur. Muloyim takallum — vahshiylarni ulfat sari boshqarur, fiisungarafsun bilan yilonni tushukdin chiqorur».

Darhaqiqat, kishio'zigaizzat-ikromni, obro'-e'tiborni totli tili orqalitopadi. «Tilgae'tibor — elga e'tibor», «Achchiq til zahari ilon, chuchuk tilgajon qurbon», «Gapning qisqasi yaxshi, qisqasidan hissasi yaxshi» singari xalqimizning maqol va iboralarida ham insonlararo ibratli muomala qoidalari ifodalangan.

Axir o'ylab ko'ring - oila a'zolari, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar bilan muloqot tabassum bilan, samimiyat bilan boshlansa, ikki o'rtada dilxushlik hukmron bo'ladimi-yo'qmi? Shirin muomalangiz, to'g'riso'zligingiz, ma'noli suhbatingiz aka-ukalaringiz, opa-singillaringiz, eng muhimi, ota-onangizni Siz bilan ko'proq suhbatlashishga, demakki, o'zaro mehrli bo'lishga rag'batlantiradi.

Kishilar hayotining asosiy qismi mehnat qilish, tahsil olish va turli jamoat ishlarini bajarish bilan o'tadi. Bu jaraj^onda tengdoshlarimiz, ustozlarimiz bilan, istaymizmi-yo'qmi, muloqotgakirishamiz. Oilami/ga xursaiulchilik bilan yoki ko'nglimiz qorong'i bo'lib qaytishimizning, kayfiyatimizning qanday bo'lishi, oxir-oqibat, uzoq yoki kamroq umr ko'rishimizning garovi ham bir-birimiz bilan bo'ladigan muloqotimiz sifati va mazmuniga chambarchas bog'liq, shunday emasmi? Demak, juda ko'p narsa rahbar va xodimning, ustoz va shogirdning, tengdoshlarning, tanish-bilishlarning o'zaro muloqoti qanday bo'lishiga, uning natijasiga borib bog'lanar ekan-da. Kishining o'zidan ketishi, boshqalarga ters muomalasi, manmansirashi butun jamoaning asabiga salbiy ta'sir etadi. Qaycrda

bo'lmasin nosog'lom muhitni vujudga keltiradi, bunday muhitda ishlash yoki o'qish kishi ruhiyatiga, salomatligiga, hatto u qaytib boradigan oilaning ma'naviy muhitiga ham katta zarar yetkazishini tasavur qilish qiyin emas. Kim bo'lmaylik, kishilarga ularning mansabi, mavqeyi, davlati va boshqa tashqi jihatlariga qarab emas, balki hazrati Inson sifatida muloqotda bo'lishimiz shartdir.

Xo'sh, bu gaplarning bizga — 9-sinf o'quvchilariga nima daxli bor, deb so'rashingiz mumkin. Shoir Usmon Nosirning «*Fikr — bola, bola — o'suvchan*» degan go'zal satriga ahamiyat bering. Har qanday fikr o'sib borar ekan, uning aslida ildizi qandayligi muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday bola xuddi fikrday o'sar ekan, uning ham bugun qandayligi, qanday tarbiya olayotgani, mushtdayligidan o'zini qanday tutayotgani izsi/. kctmaydi aslo. Afsuski, oramizda ikki og'iz gapni chiroyli ifoda qila olmay-digan, topib emas, qopib gapiradigan, qolaversa, shu holiga sinfdoshlaridan o'zini katta tutadigan, ularni mensimaydigan qiz-yigitlar ham uchrab turadi. Ular ustozlari tomonidan aytilayotgan o'gitlarga ham cho'p-chakdek munosabatda bo'ladilar, o'ziga bir nazar tashlash, o'zini o'nglashni xayollariga ham keltirmaydilar. Holbuki, erta o'tib indin ular ham ulg'ayadilar, biror jamoaga, korxonaga boradilar. Kasbdosh, mahalladosh orttiradilar. Xo'sh, bolalikdan shakllangan boyagi salbiy xulqni, axloqni o'zgartirish oson kcchadi, deb o'ylaysizmi? Aslo!

Modomiki, biz insonlar jamiyatining a'zosi ekanmiz, unga munosib bo'lishimiz, uning yozilgan va yozilmagan qoidalariga amal qilmog'imiz talab etiladi. Toki, bizning bir og'iz noo'rin gapimiz, yomon muomalamiz, qo'pol xatti-harakatimiz kimningdir ko'ngil uyini vayron qilmasin, yorug' qalbini qorong'ilashtirmasin. Aksincha, yana hazrat Navoiy aytganidek, bir ko'ngli buzuqning xotirini jam aylasak — unda hayotga, ertangi kunga umid paydo qilsak, o'z kuchi va qobiliyatiga ishonch ruhini uyg'otsak, bu ish agar Ka'ba vayron bo'lsa, uni tuzatmoqlik daraja-sidagi savobga doxil bo'ladi.

Shu o'rinda quyidagi muqaddas ibratni yana bir bor keltirish foydadan xoli bo'lmaydi, deb o'ylaymiz.

Abdulloh ibn Umardan rivoyat qilinadiki, u kishidan bir kuni Rasululloh: «Kishilarga zarar yetkazmaslikda musulmon kishiga o'xshagan bir daraxt bor. Oллоh Taolo amri bilan u daraxt hamma vaqt mevasini beraveradi va yerga to'kilmaydi, shu qaysi daraxt, bilmaysizmi?» — deb so'radilar. Abdulloh aytadilar: «Bu xurmo daraxtidur», degan fikr mening xayolimga keldi-yu, lekin Abu Bakr Siddiq va otam Umarlar javob qaytarmaganlari uchun men buni aytmoqni o'zimga ma'qul ko'rmadim. Keyin Rasululloh o'zlari: «Bu xurmo daraxtidur», dedilar. Shundan keyin men otam bilan chiqib ketayotganimizda otamga: «Rasululloh aytayotgan bu daraxtlari xurmodur, degan fikr hayolimga kelgan edi», — dedim. Shunda otam: «Nega aytmading, agar aytgan bo'lganingda, men uchun falon-falon narsa-lardan ham yaxshiroq bo'lur edi»,— dedilar. Men: «Siz ham,

Abu Bakr Siddiq ham so'zlashmaganlaringizdan keyin men gapirishni o'zimga munosib ko'rmadim»,— dedim¹.

Bu hadisning chuqur ma'nosiga e'tibor bering, do'stlar. Payg'ambarimiz kishilarga zararyetkazmaydigan insonlarai xurmo daraxtiga o'xshatganlar. Bu daraxtning xos xususiyati esa nimada ko'rinadi? «Oллоh Taolo amri bilan u daraxt hamma vaqt mevasini beraveradi va yerga to'kilmaydi!»

Chinakam inson ham shunday bo'lmog'i talab qilinarkan. Xo'sh, insonda qanday meva bitadi? Birinchi navbatda yaxshi xulq-axloq, atrofdagilar ko'nglini ravshan qiladigan ibratli odob, shirin muomala usuli-yu muloqot madaniyati emasmi? Agar shunday desak, biz o'zimizdagi bu mevani boshqalarga ravo ko'rishdan charchamasligimiz lozim ekan-da. Bugina emas, muborak hadisi sharifda xuddi xurmo daraxtidek biz ham o'z shajaramizda bitgan bu mevani yerga to'kmasligimiz — qadrini tushirmasligimiz, uni xor qilmasligimiz ham buyurilmoqda!

Undagi yana bir ibratga e'tibor qarating. Abdulloh ibn Umar Payg'ambarning savoliga javobni ilg'agan bo'lsalar-da, otasi va Abu Bakr Siddiq o'tirgan joyda ulardan oldin gapirishga istihola qiladilar. Holbuki, javobni ayt-salar,

¹ **Imom Ismoil al-Buxoriy.** «Al-adab al-mufrad». Toshkent, «o'zbekiston» nashriyoti, 1990, 111-bet.

Rasulullohdan ko'p maqto'v eshitishlari shubhasiz edi. Bundan otasi ham xursand bo'lardi. Biroq aytmadilar — o'zlarini tutdilar. Ul zotni sabrda ushlab turgan kuch nima edi? Muloqot odobi edi! Shu odobni buzmaslik, o'zidan katta va hurmatli zotlar oldida unga amal qilish majburiyati edi!

Biz ham shu ibratga amal qilmog'imiz, o'zimiz va so'zimizning bir-biriga mutanosib bo'lishiga doimiy e'tibor qaratmog'imiz kerak bo'ladi. Ayniqsa, muqaddas oilamizda, jamoat yig'ilgan paytlarda, turfa tantanalarda, ommaviy hordiq chiqarish joylarida turli toifa kishilar bilan ehtiyot bo'lib, har bir so'zni o'ylab gapirish zarur. Zero, paydar-pay, noaxloqiy mavzudagi gaplarni gapirish atrofdagilarning g'azabini keltiradi, ular uchun hurmatsizlik hisoblanadi. Boshqalarning gaplarini yashirinib tinglashga intilish eng yomon illatlar bo'lib, odamni gap o'g'risiga aylantiradi. Har qanday o'g'irlik esa katta gunohdir. Ayniqsa, ota yoxud onaning Sizga ishonib aytgan gaplarini elga dasturxon qilish - hamma yoqda yoyib yurish juda ko'p ko'ngilsizliklarga, keraksiz janjallarga sabab bo'lishi mumkin. Eng yomoni — bu harakatingiz bilan qizdirsiz, o'g'ildiisiz — Siz o'z burdingizni ketkizasiz, odamlar ishonchidan qolasiz.

Yosh jihatidan o'zimizdan ulug'larning - oila katta-larining so'zlariga quloq tutmoq, ularning fikrlari hatto noto'g'ri bo'lgan laqdirda ham sukut saqlab, o'zimiz uchun kerakli xulosani chiqarib turish faqat foydalidir. Zero, muloqot paytida hamsuhbatning so'zlarini oxirigacha sabr bilan tinglash ham san'at. Sabrsizlik bilan o'zining turli fikrlarini, nuqtayi nazarini aytib, suhbatdoshlarni chalg'itish esa madaniyatsizlik belgisi hisoblanadi. Suhbatdosh so'zlarni tugatgachgina, u haqidagi fikrlarni bayon etish har jihatdan Sizga obro' keltiradi.

Demak, oilada ota-onaning o'ziga tegishli burch va vazifalari tayin bo'lganidek, Sizning farzandlik majburiyatlaringiz ham aniqdir. Bu me'yorlar mamlakatimizning Bosh qomusi - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham belgilab qo'yilgan. Mazkur hujjatning 64-moddasida «Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar» deyilgan bo'lsa,

66-moddasida «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida gamxo'rlik qilishga majburdirlar» deya bitilgan¹.

¹ «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi». Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 2008.

XULOSA.

Milliy g'oyani anglash umummaqsad yo'lidabirlashish, uyushish, o'zini safarbar etish, hamjihat va hamkorlik, totuvlik hamda bag'rikenglik fazilatlari sifatida namoyon bo'lishini bildiradi. Shunday omilning mavjudligi mamlakatning, xalqning, millatning ma'naviy, ruhiy kuch-qudrati mustahkam ekanligini ko'rsatadi. Uning negizida o'zlikni anglash, millat va xalqning, jamiyatning oldida turgan mushtarak maqsadlarni anglash yotadi. Mushtarak taqdir, vatan, tarix, milliy-madaniy meros, til, madaniy qadriyatlar bir tomondan, ikkinchidan, mamlakatning, xalqning, millatning dunyo, bashariyat erishayotgan yutuqlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyojni his etish tuyg'usi ana shu jarayonda milliy istiqlol g'oyasini taraqqiyotning muhim kaliti sifatida namoyon etadi. Uning asosiy g'oyalari va fuqarolik mas'uliyati hamda mamlakatning, millatning kelajagi, uning o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini amalga oshirish, o'zligini saqlab qolish uchun Vatan oldida, millat va kelgusi avlodlar oldidagi mas'ullik ruhini singdiradi.

Milliy istiqlol g'oyasini o'rganishni fuqarolik mas'uliyati va burchi ham, unga ishonch va e'tiqodni mustahkam bo'lishini his etishni taqozo etadi. Shundagina u xalqni, millatni birlashtirishga, mustaqillikni mustahkamlashga va rivojlantirishga xizmat qila oladigan muhim vazifani bajaradi. Inson faoliyatida bunyodkorlik yoki tajovuzkorlik kuchini namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham har qanday fikr, g'oya, mafkura ham xalqlar taqdiriga bir xil ta'sir etmagan. Ular orasida bunyodkor g'oyalar bilan birgalikda, buzg'unchi va tajovuzkorlari ham bo'lganligi mafkura tarixidan ma'lum. Bu ham turli ijtimoiy kuchlarning "ichki ma'naviy dunyosi" maqsad va muddaolari bilan bo'lgan o'ziga xos qonuniyatdir. Ularni ham o'rganish, ham bilish zarur. Bu insonda ezgu g'oyalardan, yovuz g'oyalarni farqlay olish qobiliyatini shakllantiradi va g'oyani g'oyadan, mafkurani mafkuradan farqini anglashga yordamberadi.

Bugungi globallashuv jarayoni o'tmishda ham, hozir vakelajakda ham milliy g'oyadan bo'lgan zaruratni oshirib boradi. Shuning uchun ham bu dunyo qanchalik ma'rifiy taraqqiyot qonunlariga amal qilmasin, inson qalbi, ongi va ishonchi, e'tiqodini o'zgartirishga bo'lgan harakat, urinish, doimo saqlanib qoladi. Bunday

urinish yo'qolgan davrni, inson ongi va qalbini o'z holicha erkin va turli xil "mafkuraviy tazyiqlardan xoli holda rivojlanish deb tasavvur etishni" faqat orzu qilish mumkin. Turli maqsadlar, manfaatlar bor ekan u turli davrlarda, turli xil namoyon bo'lishi tabiiy.

Bu qonuniyatlar fan yo'li bilan o'rganilib, oldindan uni bashorat qilisho'tamurakkab jarayondir. Chunki, g'oya va mafkura sohasi ishonch va e'tiqod, dunyoqarash, manfaatlar tizimi bilan bog'liq. Shunga ko'ra, faqat uning o'zgaruvchanligini oldindan aytish mumkin, xolos. Uni xalqning o'zligiga bo'lgan munosabati, o'zligini anglash darajasi, milliy madaniy merosiga, qadriyatlariga bo'lgan munosabatda har bir avlodga nima berayotgani va nimani meros qilib qoldira olishi bilan bog'liq qonuniyat mujassamlashgan. Shuning uchun ham milliy g'oyani fan sifatida o'rganishni unchalik to'g'ri emas deb hisoblaydiganlar fikriga qo'shilish qiyin. Masalan, inson ongi va tafakkurida g'oyaviy bo'shliq vujudga kelishi bilan uning dunyoqarashida mustaqil fikrdan ko'ramutelik, qaramlik g'oyalari ustuvor bo'la boshlaydi. Demak uni ko'proq o'rganishga bo'lgan ehtiyoj zaruriyatini anglash tuyg'usini dalillovchi omillar, uni uzluksiz, doimiy, tadrijiy ravishda hamma vaqt, alohida e'tibor beradigan, qolaversa, har bir xalq yoki millatning, mamlakat yohud davlatning ertangi istiqboli, dunyo hamjamiyatida o'ziga xos o'ringa ega bo'lishi, o'zligini saqlab qolishga bo'lgan ehtiyojning hayotiy falsafasidir.

Ta'lim va tarbiya sohalari milliy istiqlool g'oyalarini yoshlar qalbi va ongiga singdirishning ustuvor yo'nalishlaridandir.

Bunday quyidagi vazifalar ko'zda tutildi:

- ta'lim muassasalarida bolalar va o'quvchilarning yoshiga mos ravishda milliy istiqlool mafkurasini singdirishda differensial pedagogic-psixologik dasturni yaratish;
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o'quvchi-talabalar ongiga milliy g'oya va milliy istiqlool mafkurasini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib boorish;

- O'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarda milliy istiqlol mafkurasining g'oyalarini teran aks ettirish;
- Maktab, litsey, kollej, ishtyreshege va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish;
- pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarni chuqurlashtirish.

Ta'lim-tarbiyaning har biri alohida bosqichi o'z navbatida milliy g'oyalarini yoshlar qalbi va ongiga singdirishning o'ziga xos omillarini nazarda tutadi. Kelajakda milliy istiqlol g'oyasini o'quvchilar qalbi va ongiga singdirishda biz ham o'z hissamizni qo'shamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.. “Ma’naviy yuksalish yo’lida”. Toshkent, 1998.
2. Karimov I.. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent, “Ma’naviyat”. 2008.
3. Karimov I.. “O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. “O’zbekiston”, 2011.
4. Karimov I.. “Biz tanlagan yo’l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo’li”. Toshkent. “O’zbekiston”, 2003. 300-bet.
5. Karimov I.. «Yoshlarimiz — xalqimizning ishonchi va tayanchi». Toshkent, «Ma'naviyat», 2006, 49-bet.
6. Karimov I.. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild,T., “O’zbekiston”, 2000-y. 490-bet.
7. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy g’oya targ’iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samardorligini oshirish to’g’risida”gi qarori. // “Xalq so’zi”, 2006-yil 26-avgust.
8. Prezident I.Karimovning “Yuksak bilimli va intellectual avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusdagi xalqaro konferensiyaning ochilish ma’ruzasidagi nutqi. “XXI asr”, 23-fevral 2012-yil.
9. Prezident I.Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. “Adolat”. 20-yanvar 2012-yil.
- 10.«O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi». Toshkent, «O’zbekiston», 2008.
- 11.Oila kodeksi. Toshkent, “Adolat”. 1998.
- 12.Qur’oni Karim. Toshkent. Islom universiteti. 2001.
- 13.Kaykovus. “Qobusnoma”. Toshkent. “O’qituvchi”, 2006.

- 14.Imom Ismoil al-Buxoriy. «Al-adab al-mufrad». Toshkent, «O'zbekiston», 1990, 111-bet.
- 15.Imom Ismoil al-Buxoriy. Hadis. 1-4-tomlar. Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati. 1997,
- 16.Rizouddin ibn Faxruddin. «Oila». Toshkent, «Mehnat», 1992, 35-bet.
- 17.Rizouddin ibn Faxriddin. «Nasihat». Toshkent, «Cho'lpon», 1993, 65-bet.
- 18.Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. 11-tom, Toshkent. "Ma'naviyat". 2011.
- 19.Abdurauf Fitrat. «Oila». Toshkent, «Ma'naviyat», 1998, 25,37-bet.
- 20.R. Usmonov. «Saodatnoma». Toshkent, «o'qituvchi», 1995, 245-bet
- 21.Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlo g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. –T.: Akademiya. 2005, 195-200 betlar.
- 22.S.Shermuhamedov, T.Sultonov. "Oila – iste'dodli yoshlarni tarbiyalashning muhim bosqichi". Toshkent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2003.
- 23.J.Hasanboyev, M.Turopova, O.Hasanboyeva. "Ma'naviy axloqiy tarbiya asoslari". Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2000.
- 24.V.Karimova. "Ota-ona maktabi – baxtli hayot maktabi". Toshkent. 2002.
- 25.M.Lafasov, T.Toshpo'latov, G.Lafasova. Milliy g'oya fanini o'qitish metodikasi. Toshkent. 2008.
- 26.O.Musurmonova, R.Qo'chqorov, M.Qarshiboyev. "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari". 9-sinf darsligi. Toshkent. "Ma'naviyat", 2009.